Шу ўринда XX асрнинг 70-80 йилларидаги адабиётларда Архиённи Тўрақўрғонга нисбат берилишининг сабабларига ҳам тўхталиш жоиз кўринади. Маълумки, Исҳоқхон Ибрат “Тарихи Фарғона” асарида Тўрақўрғон ҳақида қуйидагиларни: “...Бу Намангон атрофида бўлган қасаботлари ижмолан ёзмоқ лозим бўлди. Булардан Намангонни(нг) ғарбида бир бозорлик қасаба бу муаллиф ватани аслийсидурки, муни Дашти қипчоқ хонларидан Аҳмадхон, яъни Шиғайхон бино қилган экан. Ул вақт муаррихлари Аҳмадхон исмига қалъа қилиб, Қалъайи хон деб исм қўюб, бу лафз биносига таърих бўлган экан, 851 ҳижрийда бино бўлган экан. Аввали вақтларда биносидин то Русия давлатига ўтгунча, бул Намангонни мақарри ҳукумат пойтахти Тўрақўрғон бўлиб, эскилиги ва ҳам ҳаво жиҳатидин ислом ҳукуматдорлари бу ерни ўрда, қўрғонлар қилиб, аскари исломни(нг) ватан ва мақарри эди. Аммоки Тўрақўрғон деб машҳур бўлмоғи боний Шиғайхонни(нг) Яъқуб тўра ва Юсуф тўра деган икки ўғли. Бу қалъа хонга қўрғон қилган жиҳатдин Тўрақўрғон деб нисбат бўлган. Асл исми Қалъаи хондур, туркийси — Тўрақўрғон”, ёзган эди [5:326.]. Бундан XVIII аср охири ва XIX аср бошларида Тўрақўрғон маълум муддат илгариги Ахси вилояти, яъни, Наманган вилоятининг маъмурий маркази мақомига ҳам эга бўлганлигини англаш қийин эмас. Буни Ибратнинг маълумотлари ва Қўқон хонларининг фармойишлари ҳам тасдиқлаб турибди.

Қадимги даврда Ахси ёки Ахсикент вилояти, деб аталган ҳудуд, 1621 йилги зилзиладан кейин ҳам анча муддатгача шу ном билан атаб келинган. Жумладан, 1633, 1669, 1786 йиллардаги расмий ҳужатларда ҳудуд номи Ахсикент вилояти, 1758 йилдаги баъзи ва 1810 йилдан кейинги барча фармонларда мазкур минтақа Наманган вилояти, деб номланган. Шунингдек, Қўқон хонларининг расмий ҳужжатларида Қалъаихон-Тўрақўрғон ҳокимларига вилоят ҳокими даражасида

мурожаат қилгандек, фармойишлар берилиши, ушбу топшириқларда бевосита Архиёнга яқин ҳудуддаги Короскон саййидларига тааллуқли масалаларнинг кўрилиши ҳам тадқиқотчиларда “Қалъаихон-Тўрақўрғон-Архиён” битта манзил, деган янглиш тушунчани берган бўлиши мумкин.

Масалан, Қўқон хони Муҳаммадалихон томонидан 1245 йилнинг муҳаррам (1829 йил 3 июль-2 август оралиғи) ойида берилган фармонда жумладан: “...Абулмузаффар валмансур саййид Муҳаммадали ғозий баҳодирхон сўзимуз:

Айни замонда Наманган вилоятининг ва Қалъаихоннинг ҳокимлари ва амалдорлари, халқнинг акобир ва ашрофлари, ўрта ҳол деҳқон ва фуқаролар, аҳоли ва (у вилоятда) муқим турган ва келиб ўрнашган ер эгалари, барча мубоширлар ва мутлақ соҳиби дахллар воқиф ва огоҳ бўлиб билсунларки.....” [3:151.], сўзлар битилган эди.

XV аср охири XVI аср бошларидаги сиёсий воқеалар жараёнида Архиён қалъаси манбаларда кўп маротаба тилга олинган. Унутилиб кетган шаҳар ва қалъалар тарихий номларининг тикланиши билан бирга, кўплаб тарихий воқеаларга ҳам аниқлик киритилади.

XVI аср тарихчиси Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған “Мусаххир ал-билод” асарида Бобурни Шайбонийхондан енгилиб, Фарғона томонларга келганлиги ва кейинги воқеалар тафсилотини қуйидагича шарҳлаган эди: “...Самарқандни ташлаб чиққач, маврусий мамлакати Андижонга ошиқаркан, йўл асносида, Султон Аҳмад Танбалдан ажралиб чиққан укаси Жаҳонгир Мирзо Андижондан келиб, улуғ акаси қўлини ўпиш шарафига муяссар булди. Бобур Мирзо укаси ҳамроҳлигида Андижон яқинига етишгач, Султон Аҳмад Танбалнинг Бобур Мирзога қарши исён ва қўзголонни ҳаддан оширгани эшитилди, шу сабабли Бобур Мирзо шаҳарга киришни сира ҳам эп курмай, оти жиловини Тошкент томонга бурди. Султон Маҳмудхон ва Олачахон Бобурнинг тоғалари бўлгани учун жияни қадамига ҳасанот айтиб, эъзоз ва икром билан кутиб олдилар. Фароғатда дам олиши учун барча нарсани муҳайё қилиб, катта зиёфатларни ҳам бошлаб юбордилар. Бир неча кун утгач, Султон Маҳмудхон Андижон томон лашкар тортиб, ул мамлакатни Аҳмад Танбал қўлидан тортиб олиш ва жияни ихтиёрига топшириш учун ҳиммат кўрсатиб, шу қарорга кўра, Андижон устига юриш бошлаб, йўлга тушди.

Шу аснода жаҳон олувчи хоқон Муҳаммадхон Шайбоний эса жуда кўп аскар билан улар томонга қараб юраверди. Чунки, искандарсифат хоқон Шайбонийхон айрим ҳолларда Султон Маҳмудхон томонидан мухолифат ва қарама-қаршилик содир бўлиб, унинг ўзбек хонига чин ихлос ва садоқати йўқлигини билиб юрарди. Шунинг учун жаҳон олувчи хон катта қўшин билан ўша томонга юрди. Султон Маҳмудхон укаси Султон Аҳмадхон ва Бобур Мирзо Андижонни қайтариб олиш мақсадида сон-саноқсиз аскар тўплаб, бир неча

манзил ва масофани босиб ўтдилар. Йўл асносида эса жаҳон паноҳ хоқон ғалабага ёр қўшин билан уларга тўқнаш келиб, шу манзилдаёқ икки азим лашкар ўртасида уруш олови қизиб кетди. Мўғуллар орасида “хон” лақаби билан танилган Султон Маҳмудхон ва “Олача хон” номи билан машҳур бўлган Султон Аҳмадхон, Худо тақдирича, зафар дастгоҳли қўшин аскарлари қўлига тушиб, асир ва банди бўлдилар. Бобур Мирзо эса фурсатни ғанимат билиб, минг азобда юзини қочиш водийси сари ўтирди ва ўша заҳотиёқ оти жиловини Муғулистон вилоятлари томон бурди. Бир амаллаб Ҳисори Шодмон йўли билан ўзини Кобулга еткарди” [8:90.].

Умуман Шайбонийхоннинг Фарғона водийсини қандай эгаллаганлиги, Бобур Самарқандни сулҳ билан ташлаб чиқиб кетганидан кейинги сиёсий жараёнлар, шаҳарларда кимлар ҳокимлик қилганлиги, Шайбонийхоннинг Фарғонага биринчи ва иккинчи юришларининг сабаблари ҳақидаги маълумотлар “Таворихи гузида нусратнома” асарида мукаммал берилган [9:956.].

Архиён жанги 908 ҳижрий сананинг Зулқаъда ойида (28 апрель-28 май 1503 йил) бўлиб ўтди [1:56.].

Жумладан, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг Шайбонийхон билан 1503 йил Архиёнда бўлиб ўтган сўнгги жанги хусусида Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома” асарида ҳам нисбатан кенгроқ маълумотлар берилган.

Ушбу жанг учун сабаб, қуйидаги воқеалардан бошланган эди. Маълумки, 1499-1500 йилларда Аҳмад Танбал Султон Маҳмудхонга мулозимлик қилиб, унинг хизматига кирган бўлса, 1502-1503 йилларга келиб эса, Шайбонийхон хизматига кирди. 1503 йил Андижонда Аҳмад Танбал Шайбонийхон номини хутбага қўшиб ўқитиб, хиёнат йўлига ўтган эди. Унга қарши юриш ва Фарғонани қайта қўлга киритиш учун Султон Маҳмудхон Тошкентдан Ахси ва Андижон сари йўлга чиқади. Шайбонийхон ҳам Самарқанддан йўлга чиқиб, Хўжанд, Ўратепа, Шоҳрухияни эгаллаб, Аҳмад Танбалнинг ҳимояси учун Ахси ва Андижон томонга отланади. Бу даврда ўзига “имом уз-замон ҳалифат ур-раҳмон” унвонини олган Шайбонийхон навбатдаги юришини Фарғона водийси ва Мўғулистон томон йўналтирган эди. Мўғулистонда эса, Юнусхонинг кичик ўғли Султон Аҳмадхон-Олачахон ҳукмронлик қилар эди [7:187; 190.].

Бунгача Шайбонийхон Султон Маҳмудхонга қарашли 5000 кишилик қўшин билан ҳимоя қилинаётган Ўратепа қалъасига 3 марта ҳужум уюштирди. Шу боис, қалъанинг мустаҳкамлиги ва қўшин сонининг кўплигига ишониб, Султон Маҳмудхон Фарғона сари хотиржам юриш бошлайди:

“Андижонни не учун олмосбиз,
Ҳокимиға не учун ўт солмосбиз.

Ўз атомизнинг иторчисидур ул,
Атоси бизга эрур бойри мўғул....

Андижон мулкини биз олурбиз,
Бекининг жониға ўт солурбиз”.

Андижон сори ҳужум айлодилар,
Эл-улус бори ҳужум айлодилар.

Еттилар Ахси деган қўрғонга,
Кирмади Ахси ики ул хонга.

Ошлиғини едуриб ўтдилар,
Андижоннинг йўлини тутдилар.

Андижон бирла басе Ахси аро,
Архиён отлиғ эди бир маъво.

Етиб ул ерга нузул айлодилар,
Шаҳриға азму духул айлодилар [7:181.].

Султон Маҳмудхон ва Олачахонлар Шайбонийхоннинг Андижон сари юришини эшитиб, унга сулҳ тузиш учун элчи юборадилар. Хонлар Шайбонийхон таклиф этилаётган сулҳ шартларига рози бўлиб, Самарқандга қайтади, деб тахмин қилишган эди. Бироқ, Шайбонийхон, Аҳмад Танбал унинг номини хутбага қўшиб ўқитиб, унга содиқ навкарга айланганлигини, шу боис ҳам уни ҳимоя қилиш учун отланганлигини изҳор қилиб, сулҳни қабул қилмайди.

Шундан кейин Шайбонийхон юборган ҳуфялар Шоҳруҳия қалъасида қўлга тушган асирларни хонга топширадилар. Асирлардан олинган маълумотларга кўра, Султон Маҳмудхон, нуфузли вазирларидан Аҳмадбек бошлиқ кичикроқ бўлинмани Шоҳруҳия қалъасида қолдириб, қолган қўшини билан Ахси ва Андижон томонга отланган эди.

Ўз ўрнида Шайбонийхон ҳам Хўжанд қалъасида оғир юклар ва ортиқча отларни қолдирган ҳолда, Конибодом, Насуҳ, Ҳўқани ўрчин томон йўлга тушади. Шайбонийхон ўз элчисини Андижонга Аҳмад Танбал ҳузурига юбориб, шахсан ўзи унинг ҳимояси учун катта қўшин билан кетаётганлигини билдиради. Аҳмад Танбал номидан элчи бўлиб келган унинг туғишган иниси Бек Телба бу

даврда Марғилонда ҳокимлик қилар эди. У Шайбонийхонга ғаним қўшинининг аҳволи ва жойлашган ўрни ҳақида маълумотларни беради. Унинг сўзлари ҳамда Ахси маъмурларининг билдиришларидан Султон Аҳмадхон ва Султон Маҳмудхонлар катта қўшин билан Архиёнда эканликлари маълум бўлади:

Деди: “Ахсидин ўзиб икки хон,
Ахси элини бузуб икки хон.

Архиё шаҳрида сокиндурлар,
Ул маҳалда мутаваттиндурлар.....

Юрингиз Ахси тўшидин ўтоли,
Кўнглимузни ин этиб совутоли.

Кемалар бордур андо тайёр,
Сол учун бор қамиш ҳам бисёр”.

Хон бу сўз бирла равон азм этди,
Сирдин ўтмакни равон жазм этди.....

Бор эди тўрт кема ул тўшто,
Ҳар бир ўн қотнади бўлғой туш то.

Бўлғуча рост номози пешин,
Ўттилар борча саодатга қарин.....

Сув эли сув аро кўргач хонни,
Ўз ичин аро тилаб аённи....

Қадами етди бизнинг манзилға,
Кемаси еткувчи бу соҳилға....

Кемасини чекубон манзилга,
Етди ул Ахси деган манзилға....

Хоника лашкари ўлтургон ер,
Алачахон ҳам ўзи тургон ер.

Беш ёғоч йўлдур бу манзилдин,

Гар хабар бормаса бул маҳфилдин.

Қочмаса Хоника била Алача,
Қилибон беклари била кулча,

Сиз ўшул ерда босарсиз они,
Қўлингизга тушар ўлғой хони [7:187; 190.].

Бундан маълум бўладики, Архиён ўз даврида стратегик жиҳатдан аҳамиятли шаҳар ёки қалъа бўлган. 1499-1500 йиллардаги ҳарбий-сиёсий воқеалар жараёнида Аҳмад Танбал ва Бобур кучларининг айнан Архиёнда тўқнашиши ҳам тасодифий эмас эди. Эътиборли жиҳати тарихий манбалардан Ахсикентга Ғарб томондан, хусусан Хўжанд ва Тошкентдан йўл дарёнинг сўл қирғоғи бўйлаб келганлигининг маълум бўлишидир. Асарда Шайбонийхон қўшини дарёнинг сўл қирғоғи билан келиб, Ахси тарафига дарёдан сузиб ўтганлиги айтилмоқда. Умуман, Ахсидан ғарб томонга йўл айнан дарёнинг сўл томони бўйлаб ўтганлиги кўплаб манбалардан маълум. Бугунги кунда айрим муаллифларнинг янглиш, асоссиз тарзда бу йўлнинг дарёнинг ўнг қирғоғи бўйлаб ўтганлиги ҳақидаги билдираётган фикрлари ҳам нотўғридир. Бу ҳақда бирон бир манбада асос йўқ. Аксинча, ҳозирги Тўрақўрғон-Чуст-Санг-Поп йўли XX асрнинг 50-йилларида қурилган эди. Шу боис, савдо-иқтисодий ва дипломатик йўл ҳар жиҳатдан қулай бўлган дарё жанубий қирғоғи бўйлаб ўтган эди. Баъзи мақолаларда учраб турган Ахси қишлоғи-Резаксой-Санг йўли умуман бўлмаганлиги тарихдан маълум. Чунки, Исҳоқхон Ибрат тадқиқотларидан маълумки, мазкур Ахси ва Резаксой қишлоқлари Ахси зилзиласидан қарийб юз йил кейин ташкил топган. Шунингдек, “Бобурнома”да тасвирланган “Гумбази Чаман” маконини ҳам айнан Сирдарёнинг сўл қирғоғидан излаш лозим.

Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг Архиён жангида қўшинлар нисбати ҳақида етказган ахборотлари Муҳаммад Солиҳ берган маълумотлардан фарқ қилади. Жумладан: “...Бу хонларда (яъни, Султон Маҳмудхон ва Султон Аҳмадхон-Т.Қ.) ўн беш минг ҳамроҳ бор эрди”, деб ёзиб, Бобурни ўзларига ҳамроҳ қилиб олишларидан кўзланган мақсад эса, унга ота мерос тахтни Султон Аҳмад Танбалдан қайтариб бериш учун эканлигини ёзади. Шу билан бирга, бу юришда “...Шоҳибекхон ўттиз минг қўшин бирла етиб келди. ...Вақтеки, мухолифларнинг лашкари тўла учун хонларға шикастлик етиб эди” [6:225.], дейди. Яъни, душман лашкари ичида кўплаб тажрибали лашкарбошилар бўлгани ва қўшин сони хонларникидан анча кўплиги боис ҳам хонлар енгилганлигини изоҳламоқчи бўлган.

Бироқ, “Шайбонийнома”да эса, Архиёнда тўпланган Олачахонннинг бирлашган қўшини 10 минг мўғул ва 10 минг қалмоқ аскарларидан иборат бўлиб, шунингдек, яна Хоникахоннинг ҳам 10 минглик аскари ва Бобур мирзонинг 1000 нафарга яқин навкари ҳозир бўлганлигининг маълумоти берилган.

Муҳаммад Солиҳ муғул қўшини таркибини қалмоқ, мўғул, хўтанлик, оқсулик, Иссиққўл атрофларидан келганлар, турфонликлардан иборат эканлиги ёзади. Шайбонийхон, яъни, ўзбеклар қўшини: Қиёт, Қўнғирот, Бурқут, Манғит, Найман, Дўрмон, Ўшун, Жалойир, Қарлуқ, Қўшчи, Сулдуз, Нукуз, Тотор, Тома, Уйрот, Ўрис ва бошқа қабилалардан ташкил топган эди. Шайбонийхон қўшинининг ўнг қанотини Дўрмон уруғидан бўлган Жонвафобий бошқаради, чап қанотини эса Найман уруғидан бўлган Қанбарбий бошқаради [7:197; 200.].

Шайбонийхон билан хонлар ўртасидаги жанг Архиён ёнида бўлиб ўтади. Бу жангда Султон Маҳмудхон ва унинг иттифоқчилари енгилади. Хонлар асир олиниб, Шайбонийхон ҳузурига олиб келинади. Бобур мирзо эса Фарғонанинг жануб томонларига қараб чекинади. Асирга тушган хонларни сарой аҳли бир овоздан қатл қилишни лозим деб топадилар. Лекин, Шайбонийхон: “Ул икки биродарнинг бизнинг ҳаққимизда эски(дан) қилган яхшиликлари бор. (Шунинг учун ҳам) уларни афв этиб, эъзозу икром билан (асирликдан) бўшатиб юбормоғимиз муносиб кўрилади”, дейди. “...Шунга кўра, у икки саодатнишон хонни (яқин) кишилари, ходимлари, қуллари билан подшоҳона қурол-яроғ, хусравона совғалар бериб, ўз ватанларига жўнатди”. Хон мағлубларга мурувват кўрсатиб, озод қилган ҳолда, ўз ватанларига шоҳона иззат-икром билан кузатиб қўяди. Бу воқеага бағишлаб Камолиддин Биноий қуйидаги рубоийни ёзган эди:

Ул хонки тариқи караму эҳсондур,
Шоҳлар бори чашму, жисм аро жондур.
Гар мурувват этиб бағишлади хонларни
Андин чи ажаб халифатурраҳмондир.

Йўқдур, сендек аршад қувватли хон.
Ҳам пок этак билан футувватли хон.
Хонларни олиб бағишлади мурувват,
Ким кўрди сенинг каби мурувватли хон [15:74.].

“Тарихи Рашидий”да Арихиён жангида асир тушган муғуллардан ихтиёрий равишда Шайбоийхон қўшини сафига келиб қўшилганлар ҳақида ҳам маълумотлар келтирилган: “...Анчаки муғул халқидин бор эди, хондин ёниб, уч мингга яқин муғуллар ўзбек лашкарига бориб қўшилди” [6:234.].

Шу ўринда Шайбонийхон ушбу яхшиликлари учун хонлар олдига қуйидаги уч талабни қўйди: Биринчиси, Султон Маҳмудхоннинг синглиси Давлат султонхонимни Темурхонга, Ойша султонхоним (Мўғулхоним-Т.Қ.) исмли қизини Шайбонийхон ўзи учун, Қутлуғхоним исмли қизини эса Жонибек султонга хотинликка сўрайди.

Жонибек Султон ва Қутлуғхоним ўртасидаги никоҳдан кейинчалик Бухорода хонлик қилган Искандар султон исмли фарзанд, ундан эса шайбонийлар сулоласининг машҳур вакили Иккинчи Абдуллахон дунёга келди [15:74.].

Гарчи, Бобур Мирзо Шайбонийхон билан жанг қилиб, тажрибага эришган, матонатли саркарда бўлса-да, аммо, Архиён жангида қўшин бошлиғи тоғаси Султон Маҳмудхон эди. У тоғасини баъзи ўринларда ҳарбий соҳадан анча йироқлигини таъкидлаб, “Султон Маҳмудхон уруш кишиси эмас эди. Сипоҳийликдан бисёр орий эди..... Хоннинг бу юруши бефойдароқ юруш эди”, каби сўзлар билан таърифлаб ҳам ўтади.

Ушбу жангдан сўнг Заҳириддин Муҳаммад Бобур 20 ёшида бутунлай Фарғонани тарк этишга мажбур бўлди. Архиён муҳорабаси Бобурнинг водийда ғанимлари билан ўтказган сўнгги жанги сифатида тарихга кирди. Шундан сўнг Фарғонанинг жанубий ҳудудларидан Исфарада ўтказган бир йилга яқин вақтни Бобур мирзо шундай тасвирлаган эди: “Исфара вилояти тўрт бўлук кўҳпоядур: бир Исфара, яна бир Ворух, яна бир Сўх, яна бир Ҳушёр. Муҳаммад Шайбонийхон Султон Маҳмудхон била Олачахонға шикаст бериб, Тошканд ва Шоҳрухияни олғон маҳалда, ушбу Сўх била Ҳушёр кўҳпояларига келиб, бир йилга ёвуқ танқислик била ўткариб (яъни, 1504-1505 йилларда-Т.Қ.), Кобул азимати қилдим.... Муҳаррам ойида Фарғона вилоятидин Хуросон азимати била Илок яйлоғигаким, Ҳисор вилоятининг яйлоқлардиндур, келиб туштум..... Улуғ-кичик мени умидворлик била ирашиб юруйдурганлар икки юздин кўпрак, уч юздин озроқ бўлғай эди. Аксар яёқ ва иликларида таёқ ва оёқларида чоруқ ва эгинларида чопон эрди. Усрат бу мартабада эдиким, бизнинг орада икки чодир эди, Менинг чодирим волидамға тикилур эди. Манга ҳар юртга ола чўқ ясар эдилар, олачўқда ўлтурур эдим...” [4:7; 109.].

Архиёндаги бўлиб ўтган жанг тафсилоти, сабаб ва натижалари хусусида тарихчи Хондамир қуйидаги маълумотларни ёзиб қолдирган эди: “...Бобур подшоҳ Самарқандни Шайбонийхонга ташлаб чиққандан сўнг ўзининг меросий мамлакатини қайта қўлга кирита олмади ва Тошкентга кетишга мажбур бўлди. Шундан сунг Султон Маҳмудхон эл орасида Олачахон номи билан танилган ўз укаси Султон Аҳмадхон билан биргаликда Андижон томонга қўшин тортиб, ул мамлакатни Султон Аҳмад Танбалдан тортиб олиб, жаҳон бўйсунувчи подшоҳ қўлига топшириш ва бу юришни қувват доирасидан амал сари келтиришга қарор

қилиб, 906 йили катта қўшин билан ўша томон равона бўлди. Аммо Андижонга етмасдан бурун ва қўлини мақсад келинчагининг бўйнига ташламасдан олдин Шайбонийхон ёмғир томчилари сонича қўшин билан ўша манзилга келиб қолди ва шу ерда аскарлар тўқнашуви юз бериб, жуда қаттиқ жанг бўлди. Тақдир тақозоси билан Хоникахон ва Олачахон ўзбеклар қўлига асир тушдилар, жаҳон аҳли подшоҳи Бобур Мирзо эса учқур оти жиловини Муғулистон томонлардаги шаҳарлар сари бурди”[14:1023.].

Шундан сўнг Бобур мирзо бобоси Абу Саъид мирзо аввалида ўғли Умаршайх мирзога тайин этган Кобул вилоятига қараб йўл олди.

Бу ўринда Хондамир ва Муҳаммадёр ибн Араб Қатағанлар жангдан сўнг Бобур Мирзонинг Мўғулистонга кетишни лозим топганлигини ёзадилар. Аслида Муғулистонга кетиш фикри Бобурда аввалги тушкунлик ҳолатларда ҳам пайдо бўлганлигини “Бобурнома”да баён этган эди: “...Охир мундоқ саргардонликтин ва бу навъ бехонумонликтин жонға еттим. Дедимким, мундоқ душворлиқ била тирилгунча, бош олиб итсам яхши. Бу навъ хорлиқ ва зорлиқ била эл билгунча, оёғим етганча кетсам яхши. Хитойға бормоқни жазм қилиб, бош олиб кетмакка азм қилдим. Кичикликдин бери Хитой сариға ҳавасим бор эди. Вале салтанат ва алойиқ жиҳатидин муяссар бўлмас эди” [4:92.]. Шу боис, воқеалар жараёнини маълум қилган тарихчиларнинг фикрлари бежиз эмас эди. Балки шу кунларда Бобурнинг Муғулистон орқали Хитойга кетиш ниятида бўлганлиги ҳам эҳтимолдан ҳоли эмасдир.

Аммо, муаррихлар таъкидлаганларидек, Бобурнинг Муғулистон сари юзланганлигидан хабар топган Шайбонийхон унинг йўлига соқчилар қўйганлиги маълум бўлади: “...Исломпаноҳ Бобур подшоҳ Шайбонийхоннинг Султон Маҳмудхон ва Олачахон билан бўлган уруши майдонидан кутулиб чиқиб, оти жиловини Мўғулистон томон бургач ва бир-икки кунни йўл юриш билан ўтказгач “душмандан бир гуруҳи подшоҳ йўлида жойлашган довон оғзини беркитгани ва келаётганлар устига ташланиш ниятида жасурлик оёғини қаттиқ тираб, тиришқоқлик қиличини яланғочлаганлари” маълум бўлди. Шунга биноан ҳазрати подшоҳ ул йўлдан юришдан воз кечишни маъқул билиб, бошқаларга унчалик таниш бўлмаган йўл орқали Ҳисори Шодмон томонга шошилди. У ердан эса йўналиш жиловини мадинат ур-рижол Термиз тарафга қаратди”[13:167.].

Воқеаларнинг кейинги ривожидан шу нарса маълум бўлдики, темурий шаҳзода қатъий равишда йўналишни Хуросон томон ўзгартириб, Термиз сари йўл олди: “Тарих тўққуз юз ўнда Аму дарёси ёқасида Боқи Чағониёний манга келиб мулозамат қилди. ...Қабодёнға етганда Хисравшоҳнинг иниси Боқи Чағониёнийким, Чағониён ва Шаҳрисафо ва Тирмиз анда эди. Хатиб Қаршийни

йибориб, давлатхоҳлиқ изҳори қилиб, бизга қўшулмоқ бўлди. Аму суйини Уёч гузаридин ўтганда келиб мулозамат қилди” [4:27; 110].

Архиён жанги тарихимиз учун аламли ва айни пайтда аҳамиятли натижаларни берди. Бобур учун бир умрлик армонларга сабаб бўлди, у ўз ватанини бутунлай тарк этди. Шу билан бирга ўзга юртларда улкан салтанатга асос солди. Жўжи ҳамда Чиғатой улуси хонлари ўртасидаги имзоланган сулҳга мувофиқ пайдо бўлган никоҳдан эса, кейинчалик бутун Ўрта Осиёни қайтадан Бухоро хонлиги тасарруфига киритган, илм-фан ҳомийси машҳур Абдуллахони Соний (Абдуллахон II) дунёга келди.

Юртимизда қадимда машҳур бўлиб, бугун ўрни аниқланмаган шаҳар ва кентлар хусусида тадқиқотлар ўтказиш ҳам долзарб вазифалардандир.

Масалан, қадимги Косон (Муғқалъа ва Муғтепа), қадимги Поп (Мунчоқтепа), Шоҳрухия ва бошқа айрим шаҳарларнинг нима сабабдан вайрон бўлганлиги ҳали-ҳануз ўрганилмаган. Ахсикент шаҳрининг вайрон бўлиш сабабларини эса, ҳозирда ҳам асоссиз тарзда баъзи тадқиқотчилар “мўғул босқини” билан боғлаб келмоқдалар. Бизнинг томонимиздан чоп этилган мақола ва ахборот воситалари орқали бирламчи манбаларга таянган ҳолда билдирган илмий хулосаларимизга қарамасдан, яна ўша қотиб қолган ақидалару, тахминларга таянган ҳолда фикр билдиришларни давом эттирмоқдалар. Бу хусусда *Цицерон: “*Барча соҳада адашиш мумкин, бироқ, ўз хатоларини сезган ҳолда ҳам қатъий туриб олиш, гумроҳликдир”, деган эди.

Бугун тарихимизни бирламчи манбалар асосида ўрганиш, ҳаққоний тарихимизни яратиш борасида кенг имкониятлар очиб берилди. Шу боис, тахминларга таяниб ватан тарихини ёзишга уриниш илм-фанга хиёнатдир. Ўтган асрда Ўзбекистон тарихини дарслар жадвалига киритиш биз учун орзу бўлган эди. Бугун шундай имкониятлар яратилган бир пайтда яна ўз билганича иш тутиш ўзини зиёли, деб билган киши учун ярашмайдиган ҳолдир. Халқимиз биздан ҳақли равишда ҳаққоний тарихимиз ҳақида сўрайди. Шунга муносиб бўлайлик. “Шуни билгилки, хатоларда бардавом бўлишдан кўра, фикрингни ўзгартириб, хатоларингни кўрсатиб берганлар ортидан эргашиш, сени кўпроқ эркин-у, озод қилади”, деган эди *Марк Аврелий.*

Ўзини ватан тарихчиси, деб билган ҳар бир мозийшунос ҳар қачон халқи олдида ўзини бир умр қарздор, деб ҳисоблайди. Архиён қалъаси тарихига боғлиқ жиҳатлар ёритиб ўтилган, ҳали тадқиқ этилмаган, чоп этилмаган, халқимизга тўлалигича етказилмаган асарларимиз талайгина. Масалан, “Таворихи гузида нусратнома”, “Тарихи Шайбоний”, “Тарихи Султони Ўзбакия”, “Тарихи Муҳий”, Мулло Шодининг “Фатҳнома”, Абулфазл Алламийнинг “Акбарнома”, Камолиддин Биноийнинг “Шайбонийнома” ва бошқаларни тадқиқ этиб, илмий жамоатчилик ҳукмига ҳавола қилиш ҳам муҳим ишлар сирасидадир. Юқоридаги

каби асарларни синчиклаб ўрганган ҳолда тадқиқ этиш ва илм аҳлига етказиш, бизнинг олдимизда турган масъулиятли ва савобли вазифалардандир.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Азимджанова С. К истории Ферганы второй половины XV в.-Ташкент: Издательство академии наук Узбекской ССР, 1957.-С.56.

2. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси архив фонди. II Фонд, 37-иш, 2,3,4,5,6 бетлар.

3. Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир.-Тошкент: Фан, 1965.-Б.89, 120.

4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Юлдузча, 1989.-Б.27,110.

5. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. (“Мерос” туркуми.).-Тошкент: Камалак, 1991.-Б.326.

6. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-Б.225.

7. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома.-Тошкент: Адабиёт ва Санъат нашриёти. 1989.- Б.187-190.

8. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.-Б.90.

9. Таварихи гузида - нусратнаме (Исследование, критический текст аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филологический наук А. М. Акрамова).-Ташкент: Фан, 1967.-956 б.

10. Умматов Р. Ахсикент: замонлар оша назар //Наманган ҳақиқати, 2016.-11 июнь.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Москва: “Рус тили” нашриёти, 1981.-Б.78.

12. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар (1917 йилгача). Тошкент: Фан, 1990-Б.12.

13. Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати (“Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар” - “Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст” китобининг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ҳақидаги боблари).-Тошкент: Шарқ, 2011.-Б. 167.

14. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. “Хабиб ус-сийар фи ахбори афроди ба шар” (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст”).-Тошкент: Ўзбекистон, 2013.-Б.1023.

15. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. Биринчи китоб.-Тошкент: Шарқ, 1999.-Б.74.

16. بابرنامه - Bombay: Cheetra Prabha Press, 1890.-4 ص.

17. قزان اونیویرستیتینینگ طبغخانهسی ۱۸۵۶ یال ۶. ص.– بابرنامه

18. Исҳоқхон тўра Жунайдуллаев. Фарғона областидаги қадимги Ахси шаҳрининг тарихи (Исхакъ Ханъ тюря Джунайдуллаевъ. История древнего города Ахсы в Ферганской области) //Туркистон вилоятининг газети, №48.-1913.-23 июнь.

POLIAKRILONITRIL ASOSIDA IONALMASHINUVCHI MATERIALLARNING OLINISHI VA FIZIK KIMYOVIY XOSSALARI

Babayeva Gulnoza Oybek Qizi
Toshkent tibbiyot Akademiyasi
Tibbiy va biologik kimyo assistenti
E-mail: **gulnozababayeva06@gmail.com**
Tojiboyeva Iroda Muxammadyunusovna
Toshkent tibbiyot Akademiyasi
Tibbiy va biologik kimyo assistenti
E-mail: **tojiboyevairoda032@gmail.com**
Xidirova Mavluda Narzullayevna
Toshkent tibbiyot Akademiyasi
Tibbiy va biologik kimyo assistenti
E-mail: **movludaxidirova298@gmail.com**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7729664

Anatatsiya: Bugungi kunda to’planib qolgan ruda sanoati chiqindilari,boyitish qoldiqlari va tashlandiq suvlardan hamda boshqa texnogen chiqindilarni sanoatga jalb qilish zarurati ortib bormoqda.Bu ikkilamchi xomashyo qator siyrak va rangli metallar manbai hisoblanadi. Bularni qayta ishlashning kompleks texnologiyasini ishlab chiqish Bularning qayta ishlab chiqishning kompleks texnologiyasini ishlab chiqish, mahsulot assortimentini kegaytirish bilan bir qatorda sanoat chiqindilaridan foydalanish va xududning ekologik holatini yaxshilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Poliakrilonitril tolasi, Etilindiamin, Dinamik almashinuv sig’imi, Geksametilindiamin, Polietilinpoliamin, Gidroksilamin.

Кириш:Ҳозирги кунда купдан куп синтетик кимёвий толаларни янги турлари яьни ион алмашинувчи толасимон материаллар яратилмоқда, бу ўз навбатида саноатнинг турли соҳаларида, қишлоқ ҳўжалигида, тиббиётда ва экологик муаммоларни ҳал этишда уларнинг қўллаш доирасини кенгайтиради.


Таркибида ион алмаштирувчи ҳамда комплекс ҳосил қилувчи гуруҳлар тутган полимер сорбентлар айрим металларга нисбатан селективлик хоссасини намоён қилади. Полиакрилонитрилни аминлар билан ишлаш эса таркибида кучли асос хоссасига эга бўлган анионитлар олиш имконини беради. Бундай сорбентлар хром ионларига нисбатан селектив бўлса, улар асосида олинган поликомплексонлар эса мис ионларига нисбатан селектив ҳисобланади. Ушбу сорбентлар асосида олинган карбоксил гуруҳ тутган поликомплексонлар

эритмалардан ҳам кислотали ҳам ишқорий муҳитларда мис (II) ионларни селектив равишда ютиб олиш хусусиятига эга[1-3].

Биз таркибида хелат ҳосил қилувчи функционал гуруҳ тутган сорбентларни синтез қилиш мақсадида полиакрилонитрил асосида таркибида асос хоссасига эга бўлган анионалмаштирувчи функционал гуруҳлар ҳамда катион алмашинувчи гуруҳли поликомплексонлар синтез қилдик.

Бундай поликомплексонлар гидрометалларгияда металларни ажратиб олишда, саноат оқава сувларини зарарли металл ионларидан тозалашда, табиий манбалардан ичимлик сувини зарарсизлантиришда, шунингдек тиббиёт учун мўлжалланган бактерицид материалларни яратишда аҳамиятли ҳисобланади. Полиакрилонитрил толасини этилендиамин (ЭДА) ва фосфит кислотаси билан формалин иштирокида кетма кет кимёвий модификация қилиш натижасида олинган поликомплексонга (ПЭФ-1) мис (II) ионларини статик ва динамик шароитларда сорбцияси ўрганилди

.Бунинг учун аввало полиакрилонтрил толаси таркибидаги циан гуруҳларини реакцион фобилиятини ошириш учун фаоллаштириб олинди. Бизга маьлумки[4] оддий шароитда циан гуруҳини азоттутган асослар ёки аминлар билан таъсирлашиш реакцион қобилияти суст ҳисобланади. Уларнинг реакцион фаоллигини ошириш мақсадида катализатордан фойдаланилди. ПАНни полиаминлар билан модификациялашдан олдин циан гуруҳларини фаоллаштириш мақсадида гидроксиламин (ГА) билан ишлов берилди, бу жараён юқори алмашиниш сиғимига эга бўлган ионалмашинувчи материаллар олиш имконини беради.




Реакция маҳсулоти таркибида ҳосил бўлган янги функционал гуруҳларни аниқлаш мақсадида ионалмашинувчи материалларни циан гуруҳини алмашиниш даражасини тавсифлаш учун статик алмашув сиғимини (САС) аниқлаш усулидан фойдаланилди.

Сорбентларнинг САСнинг қиймати уларга ионалмашув хоссасини берувчи функционал гуруҳлар миқдорига боғлиқ. Бунинг учун полиакрилонитрил толаси ЭДА ва фосфит кислота билан формальдегид иштирокида кимёвий модификацияси амалга оширилган. Натижада HCl бўйича 2,7 мг-экв/г ва NaOH бўйича 5,2 мг-экв/г САСга эга бўлган анион ва катион алмаштирувчи гуруҳлар тутган полиамфолит синтез қилинди.


СМА-4 толасининг фосфит кислотаси билан формалин иштирокида кимёвий ўзгартиришдан олдинги ва кейинги ИҚ-спектрлари дан куринадики

модификацияланган полимер ИҚ-спектрида 3260 $см^{-1}$ да ютилиш чизиқлари =NH ва $–NH_2$ гуруҳларининг валент тебранишларига, 1541-1558$см^{-1}$ ютилиш чизиқларида >NH гуруҳга таалуқли деформацион тебранишлар ва фосфит гуруҳга мос келувчи 1660$см^{-1}$да янги ютилиш чизиқлари кузатилди. Модификацияланган толанинг кимёвий тузилишини ИҚ- спектроскопик тадқиқот натижалари тасдиқлайди.

Олинган поликомплексоннинг кимёвий тузилишини ИҚ- спектроскопик тадқиқот ва адабиётларда келтирилган натижалар асосида қуйидаги схема билан ифодалаш мумкин:



СМА-4 сорбентнинг кимёвий формуласидан кўриниб турибдики, у ўз таркибида >NH ва $–NH_2$ гуруҳлар сақлайди.



ПЭФ-1 сорбенти ўз таркибида амино- ва фосфит гуруҳлар тутади ва бу унга полиамфолит хоссасини беради.

Маълумки, рангли металларни ишлаб чиқарадиган ҳудудларнинг табиий сувлари оғир металларнинг ионлари, хусусан, мис ионлари билан ифлосланган бўлади. Бу сувлардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш минтақадаги экологик вазиятнинг ёмонлашишига олиб келади. Шу сабабли бу сувларни тозалаш муаммоси пайдо бўлади. Корхона оқава сувларидан зарарли металларни ион алмаштирувчи ионитлар ёрдамида тозалаш энг самарали усул ҳисобланади.

ПЭФ-1 адсорбентини мис ионларини сорбциясига тавсия этиш мақсадида ушбу металл ионини сорбциясини статик шароитда ўрганилди. Бунинг учун

$CuSO_4$ тузининг сувли эритмасидан фойдаланилди. Сорбция жараёни ПЭФ-1 полиамфолитнинг 2 хил OH^- (ПЭФ-1К) ва H^+ (ПЭФ-1А) ҳолатларидан фойдаланилди.

Юқоридаги маълумотлардан фойдаланган ҳолда полиамфолитга Cu(II) ионлари сорбцияси ишқорий муҳитда ион боғланиш, кислотали муҳитда эса координацион боғлар ҳисобига боришини куришимиз мумкин

Адабиётлар:

1.Мирошник Л.В., Коровникова Н.И. Ионообменные и кислотные свойства сорбентов на базе полиакрилонитрильных волокон//Функциональные мембраны. -1998,-5, №2, -С. 270-273.

2.Зверев М.П. Волокнистые хемосорбенты материал для защиты окружающей среды // Хим. волокна. - 2002. - № 6. - С. 67-75.

3.Бреусова И.П., Ролева О.И., Львова М.Б., Станченко Г.И. Исследование особенностей взаимодействия гидроксиламина с полиакрилонитрилом, входящим в состав привитых сополимеров целлюлозы. // Изв. вузов. Химия и хим. технол. -1984. - Т.27. - № 9, - С. 1118 - 1121.

4.Гафурова Д.А., Шахидова Д.Н., Мухамедиев М.Г., Мухамедов Г.И. Некоторые особенности взаимодействия азотсодержащих оснований с полиакрилонитрилом. ДАН РУз,- 2013, -№4,-С. 40-42.

JAHON TOVAR BOZORLARIDA ENERGIYA RESURSLARIGA BO'LGAN TALABNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI

Axmedov Sardorbek Rasuljon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
1-kurs magistranti ilmiy rahbar
Xudoyorov Anvar Aidjonovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi
ziyorat turizmi kafedrasi" dotsenti
iqtisodiyot fanlari nomzodi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7729703

Annotatsiya: maqolada XX asrning 70-yillaridan hozirgi davrga qadar jahon tovarlar bozorlari, xususan energiya bozoridagi talabning o'zgarish tendensiyalari, unga ta'sir etuvchi omillar va kelgusida kutilayotgan o'zgarishlar tahlil qilinib, ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish borasida jahon tajribasiga asoslangan holda tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Mazkur takliflarni qo'llash kelgusida mamlakat energiya xavfsizligini mustahkamlash va risklarni boshqarishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: jahon tovarlar bozorlari, energiya xavfsizligi, investitsiya, diversifikatsiya, modernizatsiya, yalpi ichki mahsulot (YaIM), risklarni boshqarish.

ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ СПРОСА НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ НА МИРОВЫХ ТОВАРНЫХ РЫНКАХ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

Ахмедов Сардорбек Расулжон угли
магистрант 1-курса Международной
исламской академии
Узбекистана научный руководитель
Худояров Анвар Аиджанович
Международная исламская академия
Узбекистана доцент кафедры
«Исламская экономика и финансы паломнический
туризм» кандидат экономических наук

Аннотация: в статье анализируются изменяющиеся тенденции спроса на мировых товарных рынках, особенно рынке энергоресурсов, с 70-х годов XX века по настоящее время, факторы, влияющие на него, и ожидаемые изменения в будущем, разработаны рекомендации и предложения по снижению их влияние на экономику Узбекистана, исходя из мирового опыта. Применение этих предложений поможет укрепить энергетическую безопасность страны и управлять рисками в будущем.

Ключевые слова: мировые товарные рынки, энергетическая безопасность, инвестиция, диверсификация, модернизация, валовой внутренний продукт (ВВП), управление рисками.

TRENDS IN DEMAND FOR ENERGY RESOURCES IN THE WORLD COMMODITY MARKETS AND FACTORS AFFECTING THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Akhmedov Sardorbek
1st year master student of International
Islamic Academy of Uzbekistan scientific adviser
Khudoyorov Anvar
International Islamic Academy of Uzbekistan
Associate professor of the Department of Islamic
economics and finance, pilgrimage tourism
candidate of economic sciences

Annotation: the article analyzes the changing trends in demand in world commodity markets, especially the energy market, from the 1970s of the 20th century to the present, the factors influencing it, and the expected changes in the future, developed recommendations and proposals in reducing their impact on the economy of Uzbekistan based on world experience. These proposals will help strengthen the country's energy security and manage risks in the future.


Keywords: world commodity markets, energy security, investment, diversification, modernization, gross domestic product (GDP), risk management.

Hozirgi kunga kelib dunyoda global o‘zgarishlar sharoitida yangi davr muhitiga moslashish jarayonlari sodir bo‘lmoqda. Ulardan e’tibor qaratishimiz eng zarur bo‘lgan jihatlari – jahon tovar bozorlaridagi o‘zgarishlar, xususan energiya bozoridagi talabning muntazam ravishda o‘sib borishi, narxlarning o‘zgarish tendensiyalari va xalqaro maydondagi vaziyatning qarorlar qabul qilishdagi ta’siri hisoblanadi.

Jahon energiya bozoridagi nobarqaror vaziyatdan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi III ustuvor yo‘nalishning (Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash) 22-maqsadida “Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish” hamda 24-maqsadida “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish” belgilangan.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi, Ukrainadagi urush va qazib olinadigan yoqilg‘idan qayta tiklanadigan energiya tovarlariga o‘tish sharoitida tovar bozorlarini to‘g‘ri prognozlash har qachongidan ham muhimroqdir. Bu esa tovar bozorlariga ta’sir etuvchi omillarning keng doirasini har tomonlama va o‘z vaqtida tahlil qilib borish, uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldini olish imkonini beradi.


Albatta, jahon tovar bozorlaridagi rivojlanishlar global iqtisodiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va shubhasiz, jahon iqtisodiyotidagi har qanday o‘zgarishlar ham tovar bozorlariga ta’sir etmay qolmaydi. Jahon banki mutaxassislari tomonidan chop etilgan 2020 yil yakunlariga bag‘ishlangan tahliliy to‘plamga ko‘ra, XX asrning 70-yillaridan keyin jahon tovar bozorlaridagi talabning o‘sishi jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi sonining ortib borishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi tushuntirilgan (1-rasm).



1-rasm. 1970-2020 yillarda jahon YaIM, aholisi va tovar bozorlaridagi o‘zgarishlar, foizda (Manba: Jahon bankining 2022 yildagi “Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies” nomli to‘plami asosida tayyorlandi.)

Jumladan, 1970-2020 yillar davomida jahondagi metalga bo‘lgan talab YaIM bilan deyarli bir xil darajada o‘sgan bo‘lsa, shunday bog‘liqlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste’moli va aholi sonining ko‘payishi ko‘rsatkichlarini solishtirganda ham kuzatiladi. Jahondagi energiya mahsulotlari iste’moli esa YaIM va aholining ortib borishiga nisbatan muvozanatli darajada ko‘paygan. Shuningdek, jahon tovar bozorlaridagi ulkan o‘sishlarga texnologik rivojlanish va yangi xom ashyo zahiralarining aniqlanishi ham sezilarli turtki bergan.

Jahon energiya iste’moliga to‘xtaladigan bo‘lsak, bugungi kunda uchta asosiy qazib olinadigan yoqilg‘i - neft, ko‘mir va tabiiy gaz - jami energiya iste’molining 83 foizini tashkil qiladi, bu ko‘rsatkich 1970 yildagi 94 foiz bo‘lgan. Neft global qazilma yoqilg’i iste’molining taxminan uchdan ikki qismini va global energiya iste’molining 40 foizini tashkil etadi. Neftning katta ko‘lamda iste’mol qilinishining sababini uning havo va dengiz transporti uchun asosiy manba ekanligi, tayyor zaxiralarning mavjudligi, ishlab chiqarishning arzonligini va tashishning qulayligi bilan ta’riflash mumkin. Muqobil energiya ishlab chiqarishda esa ko‘mir ushbu uchta yoqilg‘ining eng arzoni bo‘lib, uning ulkan zaxiralari 140 yilga yetishi taxmin qilinadi. Hozirgi kunda neftning 60 yilga va tabiiy gazning 50 yilga yetadigan zaxiralari aniqlangan.



2-rasm. Jahonda energiya resurslarining sohalar kesimida iste’moli hajmi, foizda (Manba: Jahon bankining 2022 yildagi “Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies” nomli to‘plami asosida tayyorlandi.)

So‘nggi bir asrda yangi yoqilg‘i manbalarining paydo bo‘lishi bilan energiya bozorlarining tuzilishi sezilarli darajada o‘zgardi. Neft hajmi bo‘yicha energiya tovarlari orasida eng yirigi hisoblanadi. U asosan transport uchun ishlatiladi. Tabiiy

gaz va ko‘mir elektr energiyasi ishlab chiqarish, isitish (gaz) va metal eritish (ko‘mir) kabi sanoat maqsadlarida foydalaniladi.

Neft yoqilg‘isining taxminan uchdan ikki qismi transport uchun, qolgani asosan neft-kimyo sanoatida sarflanadi. Hozirgi vaqtda transportda neftning o‘rnini bosuvchi vositalar yetarli emas. Aksincha, tabiiy gaz va ko‘mirdan foydalanish asosan elektr energiyasi ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelib, ular iste’molining mos ravishda 40 va 60 foizini tashkil qiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ko‘plab muqobil yoqilg‘idan foydalanish mumkin, ammo bu moslashuvchanlikka uzoq vaqt ketadi. Ko‘mir va tabiiy gazni muqobil energiyaga almashtirish ancha murakkab, chunki u shunday ishlab chiqarish quvvatlarini qayta jihozlash yoki yangisini qurishni talab qiladi. Yadro va qayta tiklanadigan energiya ham elektr energiyasini ishlab chiqarish o‘rnini bosishi mumkin.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, resurs ko‘p ishlatadigan iqtisodiyotdan taraqqiyotning innovatsion modeliga o‘tish hisobga olingan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash ko‘p jihatdan XXI asrda har qanday davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Shunday sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotining yildan-yilga o‘sib borishi, aholi sonining ko‘payishi, texnologik o‘zgarishlar mamlakatimiz energiya xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rishni taqazo etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini kelgusida yetarli energiya manbalari bilan ta’minlash maqsadida mavjud energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish va muqobil qayta tiklanuvchi energiya resurslariga o‘tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lamini kengaytirish zarur bo‘ladi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan investitsiyalar oqimining rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya intensivligiga (energiya iste’moli/YaIM) ta’siri o‘rganilganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar oqimining 1 foizga ortishi energiya intensivligining o‘rtacha 0,24 birlikka o‘sishiga olib kelishi va texnologik rivojlanishning 1 birlikka yaxshilanishi esa energiya intensivligining 0,045 birlikka kamayishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qilinadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi ham asosan samarali ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuqori texnologiyalarning joriy etilishi va ekologiyaga yetkaziladigan zararning kamayishi uchun xizmat qilishi kerak.

Jahon energiya bozoridagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan risklardan himoyalanish uchun mamlakatimizda quyidagi tuzilmaviy islohotlarni takomillashtirish lozim bo‘ladi:

- **Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash.** Kelajakda qayta tiklanuvchi muqobil energiya resurslari qazilma yoqilg‘ining o‘rnini egallashini inobatga olib, energiya tovarlarini eksport va import qiluvchi mamlakatlar tomonidan iqtisodiyotning boshqa sektorlarini ham rivojlantirish va buning natijasida kelgusidagi xavf risklarini minimallashtirish mumkin bo‘ladi.
- **Jamg‘armalarni diversifikatsiyalash.** Qazilma energiya resurslariga bo‘lgan talabning pasayishi natijasida uning eksportchilari tomonidan kelajakda olinadigan daromadlarning qisqarishi hozirda “og‘ir kun” uchun jamg‘arib qo‘yiladigan mablag‘lar hisobidan qoplanish imkoniyati mavjud.
- **Energiya resurslari xavfsizligini ta’minlash.** Muqobil energiyaga o‘tish jarayonlari boshlanganligi sababli, kelgusida metal mahsulotlari uchun talabning keskin oshishi kuzatiladi. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya mahsulotlarining yaratilishi uchun foydalaniladigan metal mahsulotlari ishlab chiqarishdagi mavjud to‘siq va qiyinchiliklarni hozirning o‘zida zudlik bilan bartaraf etish zaruratini tug‘diradi.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston iqtisodiyotini kelajakda zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.

2. Abeysinghe, T. 2001. “Estimation of Direct and Indirect Impact of Oil Price on Growth.” Economics Letters 73 (2): 147–153.

3. Baffes John, and Peter Nagle, eds. 2022. Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies. Washington, DC: World Bank. License: Creative Commons Attribution CC BY 3.0 IGO.: 4–11.

4. Baumeister C., D. Korobilis, and T. K. Lee. 2020. “Energy Markets and Global Economic Conditions.” The Review of Economics and Statistics. Advance online publication. https:// doi.org/10.1162/rest_a_00977.

5. BP Statistical Review of World Energy 2021; USDA; World Bureau of Metals Statistics; World Bank.

6. Исаджанов А. (2020). «Зеленая экономика»: особенности и факторы развития. *Экономика И Образование*, *1*(1), 12–18. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4204.

7. Xudoyqulov A. (2023). To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar energiya intensivligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? https://yuz.uz/news/togridan-togri-xorijiy-investitsiyalar-energiya-intensivligiga-qanday-tasir-korsatadi.

FASHION AS AN OBJECT OF STUDY OF HUMANITIES

Sultanova Durdona Abulxayr qizi
Trainee-teacher of Gulistan State
Pedagogical Institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.7729715

Abstract: The character of fashion is characterized by the rapid dynamics of the form of expression. The changes taking place in fashion also have an impact on the composition of vocabulary, namely, on the composition of special vocabulary – terminology. Terminology, like any other group of lexical units, reflects the corresponding development of the fields of life, science.

Keywords: vocabulary, style, fashion industry, fashion magazines.

Мода – это один из значимых механизмов, организующих жизнь общества и регулирующих поведение людей в нем. Мода подчиняет своему влиянию не только бытовую, но и ментальную сферу жизни человека. При этом мода не просто важный социальный регулятор, но и культурный феномен. Иными словами, мода – одна из актуальных тем повседневной жизни современного человека. В широком смысле слова, мода – это господство определенного вкуса в некой сфере жизни.

Феномен моды является одним из наиболее наглядных примеров того, как соотносится мыслительная деятельность и язык. Интересным представляется сравнить дефиниции слова «мода» в различных языках:

Согласно определению В. Даля, «мода» – это ходящий обычай; временная, изменчивая прихоть в житейском быту, в обществе, в покрое одежды и в нарядах.

В словаре русского языка представлены несколько значений слова «Мода»:

1. Господство в определенной общественной среде в определенное время тех или иных вкусов, проявляющихся во внешних формах быта, в особенности в одежде.

2. Образцы предметов одежды, отвечающие господствующим вкусам данного момента.

3. *Прост*. обыкновение.

Специализированный словарь одежды предлагает такое определение изучаемого термина:

Мода (франц. mode от лат. modus – мера, образ, способ, правило, предписание) – быстрое широкое распространение и кратковременное

господство определенных вкусов в отношении одежды, предметов быта или в какой-либо другой сфере жизни или культуры.

Основываясь на материале дефиницийсловарей, можно сделать вывод, что явление моды необычайно широко и охватывает различные сферы жизни: как индивидуалистический, так и коллективный подход к организации быта и деятельности людей, коллективный вкус, реализацию современных тенденций в одежде, образе жизни в целом. Следует заметить, что во всех определениях, данных на трех языках, присутствует акцент на проходящий, непостоянный характер моды, на ее изменчивость, что свидетельствует и о потенциальной способности моды влиять на изменение словарного состава языка, реализующего взаимодействие между самой модой и ее потребителями.

Таким образом, рабочее определение термина «мода» таково: мода – это форма проявления культуры, отражение действительности, проявляющееся как в манере поведения, так и в одежде. В данном исследовании понятие моды используется в узком смысле – вестиментарная мода.

Мода, являясь комплексным и сложным явлением, может изучаться с различных точек зрения. Как отмечает А.Б. Гофман, мода – «это явление целостное и универсальное, оно расположилось в самых разных областях жизнедеятельности человека: экономической, психологической, эстетической и пр.»[29], и, следовательно, изучение данного явления имеет междисциплинарный характер.

Рассмотрим определения «моды», предлагаемые учеными-представителями разных гуманитарных наук.

Как отмечает М.В. Грусман, с точки зрения культурологии мода «исследуется в различных контекстах, причем не как средство прояснения других вопросов, а как отдельный феномен»[30]. Определяя сущность данного феномена, представляется важным рассмотреть определение понятия «мода», предложенное С.Н. Иконниковой: «мода» – это «подражание образцу, удовлетворение потребностей в социальной опоре <…> наряду с подражанием мода удовлетворяет потребность в различии, выделении из общей массы»[31]. Таким образом, можно утверждать, что культурология рассматривает моду как культурно-семиотический и психологический феномен.

В рамках искусствоведения мода также рассматривается с разных точек зрения: это и эстетическая сторона (материальное воплощение духовных потребностей человека – стремление к красоте во внешнем облике, изменение и

[29] Гофман А.Б. Мода и люди. Новая теория моды и модного поведения. – М.: Наука, 1994. – 208 с.
[30] Грусман М.В. Мода как феномен культуры и средство социокультурной коммуникации: Автореф. дисс. … канд. культурологии. – СПб.: ГУТД, 2010. – 22 с.
[31] Иконникова С.Н. Очерки по истории культурологии. – СПб. : ИГУП, 1998. – 313 с.

развитие социальных норм поведения и т.д.), и негативное восприятие феномена моды в искусстве («мода на моду» в литературе, живописи или музыке неприемлема, т. к. это является препятствием для реализации замысла творческой личности). Например, композитор и теоретик искусства Н.К. Метнер утверждал, что «мода существовала всегда и во всех областях, но мода на моду в искусстве появилась только в наше время»[32].

С точки зрения истории, мода может стать основой изучения особенностей становления и развития вестиментарной составляющей процесса цивилизации. Кроме того, значительный интерес вызывают исследования по истории костюма, технологии производства одежды для подиумов и массового производства[33].

очиқдан-очиқ айбланган. Туркистон маъмурларини танқид қилиш компанияси Туркистонни бошқаришга доир 1871 ва 1873 йиллардаги низом лойихалари ҳукуматга тасдиқлаш учун тақдим этилганидан кейин, ҳамда америкалик дипломат Е.Скайлернинг Ўрта Осиёга ташрифи (1873 йил мартдан ноябргача) тўғрисидаги ҳисоботи эълон қилинганидан сўнг айниқса қизғин тус олди. Дипломатнинг ҳисоботида Туркистондаги аҳвол[2], рус маъмурларининг Ўрта Осиёдаги хонликлар ва қўшни мамлакатлар билан ўзаро муносабатлари ҳақидаги масалалар шарҳи билан биргаликда, Туркистон маъмуриятининг «ишчан» сифатларини характерловчи материаллар ҳам берилган эди. Е.Скайлер рус маъмурияти сафларида катта ойликка эга булиш ва мўмай бойлик орттириш ниятида бўлган кишилар кўплигини алоҳида қайд этиб ўтади; Перовск, Авлиёота ва Қурама уездларида қайд этилган порахўрлик ва ғазна пулини ўғирлаш ҳолатлари ҳамда Хўжанд, Верний, Копал ва Перовскдаги маъмурларнинг бошбошдоқликларидан мисоллар келтиради. Скайлернинг фикрича, амалдорларнинг ноқонуний йиғимлари, бошбошдоқлиги, солиқ тизимининг тартибга солинмаганлиги маҳаллий аҳолининг кенг норозилигини келтириб чиқариши ва бу билан чоризмнинг минтақадаги ҳукмронлигига хавф туғдириши мумкин эди[3]. Туркистоннинг табиий ресурсларига ва уни бошқаришга қизиқиш кучайиши билан расмий йўналишларга бағишлаб эълон қилинган ишлар ҳам пайдо бўлди[4]. Бу ишларнинг бир қисми Ўрта Осиёни босиб олиш, бир қисми эса маъмурий ва мустамлака қурилиши масалаларига, Россиянинг минтақадаги мафкуравий, иқтисодий ва савдо-сотиқ имкониятларини кенгайтириш йўлларига, Россиянинг бу соҳалардаги гегемонлигини таъминлаш усулларига, мустамлакачиликнинг Россия моделини «такомиллаштириш» борасида муаллифларнинг тавсияларига бағишланган. Бироқ, бу ишларнинг барчасида чоризмнинг минтақада юритган босқинчилик сиёсатининг принципиал асосларига шубҳа билдирилмайди, аксинча, у чоризмнинг ташқи сиёсатдаги ютуқлари сифатида мадҳ этилади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Ушбу фикр-мулоҳазаларга асос бўлган тарихий материаллар муаллифлар томонидан бир ёклама ва бузиб кўрсатилгани сабабли, уларнинг ишларига нисбатан танқидий ёндашувни талаб қилади. Манбаларга мурожаат этган ҳолда ушбу масалага ойдинлик киритайлик. Масалан, муаллифларнинг фикрича гўёки, рус маъмурлари Туркистонда маъмурий, молиявий, судлов ва бошқа хил «ислоҳотлар»ни амалга оширишда, энг аввало, хайрли мақсадларни: Туркистон халқларини «Европа тараққиёти» даражасига эриштириш, янги «фуқаролик жамияти»ни қуришни кўзлаган. Ўзаро урушлар, Ўрта Осиёдаги ҳокимларнинг зўравонлиги ва талон-тарожларидан чарчаган Туркистон халқлари гўёки ўзлари Россия тасарруфига ўтишга интилган, чоризм тузумига фақат маҳаллий хон, бек

ва руҳонийларнинг айрим вакилларигина қаршилик кўрсатган, деган ғоялар тарғиб қилинади.

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Шундай қилиб, мустамлакачилик давридаги расмий адабиётлар самодержавиенинг Ўрта Осиё минтақасидаги манфаатларини ҳимоя қилиш , унинг ўлкани босиб олиш, мустамлакага айлантириш ва ўлкани бошқариш тизимини яратиш борасидаги барча тадбирларини оқлашдан иборат булган умумий мақсадли кўрсатма остида яратилди. Уларда биз тадқиқ қилаётган мавзунинг фақат айрим қирраларигина ўз аксини топган. Шунга қарамай тарихий нуқтаи назардан, кўплаб қимматли манбаларни умумлаштирган бу ишлар, шубҳасиз, эътиборга лойиқдир. XX асрнинг 20-30-йиллари бошларида тарихчилар янги совет тузуми шароитида Туркистон тарихидаги реал фактлар ва мураккаб воқеа-ҳодисаларни илмий англаб етиш борасида дастлабки уринишларни амалга оширган. Самодержавие ва унинг миллий минтақалардаги сиёсатига танқидий муносабат ўта долзарб бўлган бир даврда яратилган бу ишлар мунозарали булиб, эҳтирос билан ёзилганлиги яққол кўзга ташланади. «Халқлар турмаси»ни[5] бузиб, ўрнида «энг инсонпарвар, энг адолатли жамият» қуришга чин дилдан ишонган муаллифлар самодержавие давридаги «ёввойиларча эксплуатация», «қонли жазолар», талон-торож ва қирғинларнинг аянчли манзарасини чизадилар. Бунга мисол қилиб Г.Сафаров, Т.Рисқулов, А.Силонов, С.Муравейский, П.Г.Галузо ва бошқаларнинг 1917 йил февраль ва октябрь тарихига, октябрь воқеаларидан кейинги миллий-озодлик ҳаракати мавзусига бағишлаб ёзилган ишларини келтириш мумкин.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Бу тадқиқотчиларнинг нуқтаи назарига бу даврда мафкуравий тазйиқлар нисбатан кам даражада бўлганлиги эътиборга лойиқдир. Худди шу даврда тадқиқ қилинаётган муаммога доир дастлабки концепция илгари сурилган бўлиб, у рус булмаган халқларнинг чор Россиясига қўшиб олиниши «мутлақ жаҳолатдир» деган мазмунга эга эди. Ушбу муаммо мазкур концепциянинг қатъий доирасида 30-йилларнинг ўрталарига қадар ёритиб келинди. Давлатчилик тарихи масалалари, мустамлакачилик тузумининг моҳияти ва асослари, уни совет тузуми билан алмаштириш шарт-шароитлари, Қўқондаги «Мухтор ҳукумат»нинг советларга қарши қўйилиши, Туркистонда мухториятнинг совет моделини жорий қлиш шартлари, унинг амалга оширилиши ва оқибатлари Г.Сафаров, П.Г.Галузо ва П.Алексеенковнинг асарларида ёритилади[6].

30-йилларнинг ўрталаридан бошлаб ўрганилаётган даврга доир тарихшуносликда, бу фаннинг ялпи сиёсатлаштирилиши, “фош қилиш” ва ёрлиқлар ёпиштириш, «Покровский мактаби»га мансублик, троцкизм, буржуа

миллатчилигида айблаш тенденцияси етакчилик қилди. Марказ ва ВКП(б) Марказий Комитетининг талабларига мувофик;, Ўрта Осиё бюросининг 1934 йил 23 майдаги қарори билан Ўрта Осиё тарихшунослигида «буржуа-мустамлакачилик концепциясига барҳам бериш» тавсия қилинадики, бу мазмунан ва сифат жиҳатидан очиқ-ойдин мунозарали бўлган ишларнинг пайдо бўлишига олиб келади[7].

Адабиётлар рўйхати (использованная литература / references):

1. Петербургские ведомости», «Дело», «Русский мир», «Биржевые ведомости», «Новое время», «Голос», «Отечественные записки«», «Московские ведомости» ва бошқа кўплаб нашрлар.
2. Г.Л.Дмитриев. Депеша Е.Скайлера и проблемы среднеазиатской политики царизма 70-х гг. X IX в. Материалы по истории, историографии и а Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. Спб., 1868;
3. Костенко А.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. Спб, 1871
4. Археологии. Сб. науч. тр. №517. Т , 1976.
5. Григорьев В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. Спб., 1874;
6. Иванов А. Русская колонизация в Туркестанском крае. Спб., 1890;
7. Абаза К.К. Завоевание Туркестана. Спб., 1902;
8. Кологривов Ю.В. Русские владения в Средней Азии. Спб., 1898.
9. Свет и тени колонизации. Спб., 1914;
10. Гессен В. О судебной власти. Сб. Судебная реформа. Т.1. М., 1915
11. www.ziyouz.com kutubxonasi

INTEGRATSION DARSLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G‘oyibnazarova Nargiza Raximjonovna
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalara o‘rgatish milliy markazi
Maktabgacha boshlang`ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7737455

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang`ich ta`limda lintegratsion ta’lim berishning o`iga xos xususiyatlari haqida bayon qilinganari haida yozilgan.
**Kalit so`zlar:** integratsiya, o`quv jarayoni, o`quvchilar bilimi, mustahkamlash, bogliqlik jihatlari, tushunchalarб izchillik

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ

Гойибназарова Наргиза Рахимджановна
Национальный центр обучения педагоговновым методикам старший преподавателькафедры методики обучения

Аннотация: Данная статья была изложена в первоначальном образовании о специфических особенностях линтеграционного образования.
Ключевые слова: интеграция, учебный процесс, знания, укрепление, взаимосвязь, последовательность понятий

INTEGRATION TRAINING FEATURES

Goyibnazarova Nargiza Rakhimjanovna
Namangan Regional National Center of
Teaching New Methodologies to Teachers

Annotation: This article was presented in the initial education on the specific features of linterization education.
Keywords: integration, educational process, knowledge, strengthening, interconnection, sequence of concepts

Integratsiyalashgan dars quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin:

- integratsiya uchun asos mavjudligi (muammo, nazariya, usul yoki o'rganish ob'ekti);

- ta'lim mazmunini tanlashga integratsiyalashgan yondashuv: haqiqatni tushunishning turli shakllariga asoslangan bilim, ko'nikma, qiymat yo'nalishlari;

- maktab o'quvchilarining turli sohalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan darsning yetarli shaklini tanlash.

Integratsiyaning muhim sharti-bir qator ob'ektlarda, texnikada yagona maqsad va funktsiyaga bo'ysunishga asoslangan materialni qurishdir. Intrapredmetal aloqalarni amalga oshirish asosida integratsiyalashgan ta'limni amalga oshirish afzaldir.

L. N. Baxarevning "integratsiyalashuvi" tushunchasi ilmlarning yaqinlashuvi va aloqasi jarayoni"ni ochib beradi. Bu jarayon ta'lim sifat jihatidan yangi bosqichga o'zaro aloqalarni mujassam yuqori shakli hisoblanadi. Integratsiya mavzu ta'lim tizimini inkor etmaydi. Bu uni takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish va ob'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni va o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Y. M. Kolyagin ta'lim tizimiga nisbatan "integratsiya" tushunchasi ikki ma'noga ega bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi:

Dunyoni bilishni ifodalash uchun o'rganishning dastlabki bosqichlaridan boshlab bolani o'rgatishi mumkin bo'lgan bilimlarni berishi kerak.

2) ta'lim vositasi sifatida o'quvchining ta'limotini rivojlantirishga, treningda mavjud tor mutaxassislikni yangilashga qaratilgan.

1) ta'limning maqsadi sifatida, u o'quvchiga barcha elementlarni bir-biri bilan bog’lashni o’rgatadi. Integratsiya yetakchi g'oyalar va yetakchi qoidalar asosida turli fanlarning bo'limlari va mavzularining tabiiy aloqasi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi bosqichda integratsiyaning uchta shakli mavjud: to'liq, qisman va blok. Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida integratsiyalashish uchun ham qulay, ham salbiy omillar mavjud. Ular asosan integratsiya taktikasini aniqlaydi. Ijobiy omillar bolaning aqlini o'z ichiga oladi.

Salbiy omillar cheklangan miqdordagi o'quv mavzusini o'z ichiga oladi, o'qish, yozish va hisoblashning juda muhim ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati. Bu mavzuni o'rganishni talab qiladi. Ona -tili va matematikani o'qitishning an'anaviy tajribasi keng integratsion imkoniyatlarni ko'rsatadi, bu ham kuchaytirilishi mumkin. Biroq, turli fanlarning har qanday birlashmasi integratsiyalashgan ta'limga aylanadi. O'qitish talabalarning bilimlarini va ularning qanday ishlashini o'zaro integratsiyalashishga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'qituvchining shaxsiy imkoniyatlarini va sinf o'quvchilarining haqiqiy potentsialini hisobga olish bir, ikki va ba'zan uchta o'quv mavzusini integratsiyalashning turli xil variantlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv jismoniy tarbiya darslaridan tashqari boshlang'ich sinflarda o'rganilayotgan barcha fanlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Rejalashtirishda alohida e'tibor 1-sinfda ona tili savodxonligi darslarining integratsiyalashuviga qaratilgan. Bunday darslar deyarli har hafta o'tkaziladi.

Matematika darsi bilan ona tili savodxonlik darslarini integratsiya qilish ko'zda tutilgan. Matematika darslari ko'pincha mehnat saboqlari va dunyo bilimlari saboqlari bilan birlashtiriladi. Ona tili savodxonligi integratsiyalashgan darslari katta hajmga ega. Matematika, va ona tili savodxonligi darslari bilan birlashtirilgan dunyo bilimi darslari yosh o'quvchilarda dunyoning yaxlit ilmiy suratini shakllantirishga, bilim qiziqishini oshirishga, o'quvchilarning aqliy jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Integratsiyaga asoslangan ta'limni tashkil etishning yana bir shakli integratsiyalangan mavzulardir.

Integratsiya prinsipi sifatida turli darajadagi ta'lim tizimlarining barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida integratsiyani amalga oshirish uchun ko'p tomonlama izlanishlar olib borilmoqda. Integratsiyalashgan darslarni ishlab chiqish asoslariga F. Fedorz tomonidan asos solingan bu integral-tematik yondashuvdir. Bu shuni anglatadiki, o'quv jarayonining mazmunli, uslubiy va tashkiliy birligi dars emas, balki o'quv intizomining o'quv mavzusi (bo'limi) hisoblanadi. Integratsiyaning asosi sifatida uning tuzilishi va xulq-atvori mantiqi bilan har qanday dars olinishi mumkin. ushbu dars boshqa fanlar, boshqa ta'lim fanlari nuqtai nazaridan tushunchalarni tahlil qilish natijalarini o'z ichiga oladi.

Ona tili va matematika darslarida ko'rib chiqiladi, ammo tushunchalarni tahlil qilish uchun boshqa fanlardan o'rganilgan bilimlarni jalb qiladigan dars bo'ladi. Xuddi shu darsning o'ziga xos xatti-harakati bilan, mantiqiy jihatdan izchil bo'lib qolmoqda.

O'qitish metodologiyasida "integratsiya" atamasi muayyan o'quv jarayoni, mavzu va ularning kombinatsiyasi orqali o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlari fanidir. "Integratsiya" tushunchasi maktab o'quvchilarida bir tomondan ularni o'rab turgan dunyo haqida yaxlit g'oyani yaratish va boshqa tomondan o'zaro bilimlarni yaqinlashtirish imkoniyatini topishdir. Integratsiya dastlab bu usulning yangiligi va mohiyatidan iborat edi, chunki u olimlarning fikriga ko'ra, nutq faoliyatining elementlarini bir butunga moslashtirish va birlashtirishga imkon berdi.o'qish-bir maqsadga tez va doimiy erishish uchun: bolalarda matn yordamida masofaviy muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich maktab integratsiyasi miqdoriy bo'lishi kerak:"har bir narsa haqida bir oz" dan tavsiya etiladi. Bolalar tushunchalar haqida yangi g'oyalar olishadi, mavjud bilimlar doirasini muntazam ravishda to'ldiradi va kengaytiradi. Integratsiyalashgan darslar orqali bolada aqlni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Matematika arifmetik, geometrik va algebraik materiallarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Matchonov S va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyo`l poligraph service'1, 2008

2. Tolipov O’, M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari-T. 2006. 230 b

3. Sobirov B, Sultonmurodov D ”Pedagoglarni pedagogik kompetentligini oshirishga talablar” Zamonaviy ta’lim 2015- yil 7- son. 60-61-bet

DARSLARDA “YUKLASH” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY TAHLILI

Dawletmuratova Bayramgu‘l Maxsetbay qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7737546

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuklash darslarining modellari, tamoyillari, “yuklash” texnologiyasining nazariy va uslubiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Boshlang‘ich sinflarda “yuklash” texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish namunalari keltirib o‘tiladi.
Kalit so‘zlar: Yuklash darslari, fanlararo “yuklash” texnologiyasi, tasviriy “yuklash”, metapredmet “yuklash”, evristik “yuklash”.

THEORETICAL-METHODICAL ANALYSIS OF USE OF "IMMERSION" TECHNOLOGY IN LESSONS

Dawletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi
Nukus State Pedagogical Institute
Master's student of the 2nd stage of the field of
Theory and Methodology of Education
and Training (primary education)

Abstract: This article examines models, principles of immersion classes, theoretical and methodological foundations of "immersion" technology. Examples of organizing classes based on the "immersion" technology in primary classes are given.
Keywords: Immersion lessons, interdisciplinary immersion technology, representational immersion, metasubject immersion, heuristic immersion.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni maktab davridan boshlab xalqaro talablarga javob beradigan, chuqur bilim va salohiyatga ega, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu ishlar shubhasiz ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi va zamonaviy o‘qituvchilar zimmasiga qator vazifalarni yuklaydi.

Bu borada dars jarayonida zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalaridan, ilg’or tajribalardan, muammoli ta’lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi deb o‘ylaymiz.

Yuklash darslari konsentratsiyalangan ta’lim modellaridan biri hisoblanadi [6]. Yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilingan darslarning asosiy xususiyati shundaki, bu jarayon quyidagi tamoyillarga suyanadi: dam olish, zavqlanish, ong va ong osti birligi, ikki tomonlama aloqa. Ya’ni, o‘quvchilarning hissiy idrogini faollashtiradigan musiqiy, badiiy, xoreografik iste’dodlarini rivojlantiradigan yangi materialni taqdim etish orqali ularning ong va ong osti birligi ta’minlanadi. Bundan tashqari, yuklash darslari har bir bolaning diqqatini jamlash va faollashtirishni o'z ichiga olgan faol darsdir.

Pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “yuklash” texnologiyasi amaliyotda kamdan kam qo‘llaniladigan texnologiya bo‘lib, uning nazariy va amaliy jihatlari olimlar orasida har xil tushuniladi.

Darslarni “yuklash” texnologiyasi asosida tashkil qilish modellari birinchilardan bo‘lib 80-yillarning boshlarida rossiyalik pedagog, akademik M.P.Shetinin tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan. M.P. Shetinin [5] darslarni yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilishning quyidagi modellarini ishlab chiqqan, bular:

- tasviriy “yuklash”;
- fanlararo “yuklash”;
- metapredmet “yuklash”;
- evristik “yuklash”;
- taqqoslash;
- madaniyatda “yuklash”.

Keyinchalik bu borada A.I. Tubelskiy (fanlararo “yuklash”), A.V. Xutorskiy [4] (evristik “yuklash”), A.A. Ostapenko [3], L.N. Snegurova, S.A. Terskova, E.V. Shubina, S.D. Mesyats [2] “yuklash” ta’lim olishning jamoaviy usuli sifatida), E.B. Evladova (madaniyatda “yuklash”) kabi pedagog olimlar o‘z izlanishlarini olib borganlar.

Psixologiya ilmlari doktori P.M. Granovskaya “yuklash” texnologiyasini “suggestopedia” tushunchasi bilan tenglashtirib, unga quyidagicha ta’rif beradi: yuklash – bu dam olish, taklif va o‘yin elementlari bilan olib boriladigan faol ta’lim metodi. Uning ta’kidlashicha, “yuklash” metodi boshqa ta’lim metodlaridan farqli ravishda e’tiborning g‘ayrioddiy konsentratsiyasi va ijodiy qobiliyatlarning kuchayishini ko‘zda tutadi. Psixolog olim “yuklash” texnologiyasin uchta tamoyilga asoslanishini aytib o‘tadi, bular:

- sinfda dam olish va zavqlanish;
- ong va ong osti birligi;
- dars jarayonida ikki tomonlama aloqa.

Metodikada darslarni yuklash texnologiyasi asosida tashkil qilishda quyidagi komponentlar majburiy hisoblanadi:

- **interfaol ta’lim shakllari.** Bunday darslarda guruhda ishlash, juft bo‘lib ishlash va o‘yin texnikasidan foydalaniladi.
- **katta hajmli ma’lumotlarni taqdim etish.** Bu, birinchi navbatda, didaktik materialni to‘g‘ri tanlashni talab qiladi. Taqdim etilgan ma’lumotlar umumlashtirilgan bo‘lishi, ammo batafsil bo‘lmasligi kerak, bu o‘quvchilarning mantiqiy va hissiy idrogini birlashtirishga imkon beradi.
- **badiiy vositalar** (rasmlar, o‘yinlar, musiqa, raqslar, qo'shiqlar va boshqalar) yuklash texnologiyasi darslarining eng muhim elementidir. Bunday vositalar sinfda emotsional va hissiy muhitni yaratishga yordam beradi.
- **bilimlarni nazorat qilish** test shaklida amalga oshiriladi. Ammo ijodiy topshiriq va vazifalarga ham ruxsat beriladi.

“Yuklash” darslarining turli modellarini tahlil qilish texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha modellarning umumiy tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik;
- ta’limning guruh va jamoaviy shakllari;
- o‘quv faoliyatining bir-birini to‘ldiruvchi shakllarining xilma-xilligi;
- o‘quvchilarning va o‘qituvchilarning vaqtlarini tejash;
- o‘quvchilarga chuqur bilim berish;
- bilimlarni o‘zlashtirish vaqtini ko‘paytirmagan holda hajmini oshirish;
- har bir o‘quvchiga bilim olish imkonini beruvchi individuallik tamoyilini amalga oshirish;
- darslardagi charchoqlarni kamaytirish;
- sinfda psixologik muxitni yaxshilash;
- bilim olish uchun motivatsiyani oshirish.

Ushbu barcha modellarning umumiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- talabalar tomonidan axborotni idrok etishning yaxlitligi;
- olingan bilimlarning yaxlitligi;
- o‘qish vaqtining tejalishi;
- bilimlarni chuqur o‘rganish imkoniyati;
- ta’lim olishning qulayligi [1].

Fanlararo yuklash darslarida ma’lum bir fanlararo integratsiyalashgan mavzu bir kun davomida ma’lum bir vaqtda o‘rganiladigan ta’lim tizimini tushunamiz. Yuklash darslari markazida o‘quv materialining mazmunini birlashtirish yotadi. Bu metod ma’lum mavzular yoki loyihalar bo‘yicha o‘quv fanlarini o‘qitishni guruhlash imkonini beradi. Masalan, tarbiya, tabiiy fanlar yoki o‘qish darslari adabiy asarni

o‘rganish bilan bog‘liq. Biz ushbu maqolamizda fanlararo yuklash darslaridan misollar keltirib o‘tamiz.

Yuklash texnologiyasi asosida har qanday darsni tashkil qilish mumkin. Bunday darslarni tashkil qilish algoritmi quyidagicha:

1. O‘qituvchi tomonidan kontseptual lug‘at ishlab chiqilishi kerak.
2. Sinf xonasini tayyorlash (agar madaniy yoki tasviriy yuklash texnologiyasidan foydalanilsa).
3. Emotsional, hissiy idrokni jalb qiluvchi umumlashtirilgan shakldagi didaktik va badiiy materiallarni tayyorlash.
4. Har xil turdagi ijodiy va o‘yin topshiriqlarini ishlab chiqish.
5. Dars shaklini tanlash. Dars uchun eng qulay shaklni tanlash, ya’ni, sayohatlar, sayrlar, intellektual musobaqalar bo‘lishi mumkin.

Quyida biz 4-sinf ona tili darsida “Matn” mavzusini “O‘qish” darsligidagi “Kuz” mavzusi bilan birlashtirib, yuklash texnologiyasi asosida darsni tashkil qilishimiz mumkin. Bunda “Matn” mavzusi etakchi mavzu sifatida, “Kuz” mavzusi esa hissiy idrokni rivojlantirishga qaratilgan mavzu sifatida tanlab olinishi mumkin. Endi esa dars mavzusidan kelib chiqib didaktik va badiiy vositalar tanlab olinadi. Dars jarayonida kuzgi rasmlardan, prezentatsiyalardan, tabiiy ko‘rgazmali qurollardan, kuzgi musiqalardan, ya’ni, barglarning shitirlashini, yomg‘irning yog‘ishini aks ettiruvchi musiqalar, videoroliklardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar bilan birgalikda sayoxatlar uyishtirishimiz, kuzgi o‘rmonga yoki sayrgohlarga sayr qilishimiz, kuz haqida she’rlar, hikoyalar o‘qib berishimiz, birgalikda kuz fasli haqidagi film tomosha qilsak bo‘ladi.

Yuqoridagi vazifalar bajarilib bo‘lingandan keyin esa, asosiy mavzuimiz bo‘lgan “Matn” mavzusiga qaytamiz. O‘qituvchi tomonidan “Matn” mavzusi tushuntiriladi, matn tuzish bo‘yicha tushunchalar beriladi, misollar keltiriladi, jamoa bilan birgalikda kichik matnlar tuziladi.

O‘quvchilarining kuz fasli haqidagi tushunchalari va tasavvurlari kengaydi, kuz haqidagi bilimlari didaktik va badiiy vositalar yordamida mustaxkamlandi. Yuklash darsining keyingi o‘ziga xos natijasi “Saxovatli kuz” mavzusida matn yaratish bo‘ladi. O‘quvchilarning tuzgan matnlari jamoada tahlil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “yuklash” texnologiyasi o‘quvchilarga o‘z-o‘zini anglash, guruhda ishlash orqali bilimlarini boyitish, bilim olishga motivatsiya darajasini oshirish, dars vaqtini tejash, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlar hajmini oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Изотова Е.А. Использование метода погружения в учебно-воспитательной работе: методические рекомендации/ автор - составитель – Галич: 2011. – 17с.

2. Месяц С.Д. Погружение — шаг в противоположность. Из опыта осмысления // Методика погружения: «за» и «против»: Сб. научн. метод, ст. /Под ред. А.А. Остапенко. Краснодар АЭСПК. 1995. С. 23-29.

3. Погружение как метод концентрированного обучения: Сб.научно-методических ст. / Под ред. А.А. Остапенко. Азовская: АЭСПК, 1997. 16 с. (Вестник Азовского экспериментального социально-педагогического комплекса. Выпуск 5).Хуторской А.В. Эвристическое обучение: Теория, методология, практика. М.: Международная педагогическая академия, 1998. — 266 с

4. Щетинин М.П. Объять необъятное: Записки педагога: книга. Педагогикаб, 1986.

5. https://bookap.info/praktik/granovskaya_elementy_prakticheskoy_psihologii/gl51.shtm

PULNING MOHIYATI, PAYDO BO'LISHI VA XUSUSIYATLARI

Qosimov Faxriddin Shamsiddinovich
UzMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi front orti va moliyaviy ta'minot sikli katta o'qituvchisi. QK xizmatchisi
Mingboyev Ibrohim Alisher o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi kursanti, Toshkent moliya instituti 3- bosqich talabasi
mingboyevibrohim9@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7738131

Anatatsiya: Ushbu maqolada eng qadimgi pulning kelib chiqishi shuningdek, pulning hozirgi zamonaviy ko'rinishiga kelguncha qanday bosqichlardan o'tganligi tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: qadimgi pullar, tanga pullar, qog'oz pullar, elektron pullar.

Insoniyat asrlar osha o'z holatini pul bilan bog'lab kelgan. Insonning qancha puli ko'p bo'lsa u o'z kelajagidagi yorqin hayotga shuncha ko'p ishongan. Xalq orasida pul bilan bog'liq irim-sirimlar ko'plab uchraydi, har millatning o'zini irimlari mavjud. Masalan, Rus xalqlari orasida bahorda qushlarni ilk sayrashini savdogarlar cho'ntagida tanga bilan tinglashgan. Cho'ntakda tanga bilan qushlar sayrashini tinglash yilni omadli kelishidan darak bergan, moboda qush sayragan vaqtda cho'ntakda tanga bo'lmasa yil omadsizlik va ziyon ko'rish bilan o'tadi deb hisoblangan. Pul kelib chiqishining evolutsion konsepsiyasiga ko'ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanislii natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olarni ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin. Har qanday mamlakatdagi tovar-pul munosabatlarining to'laqonli amal qilishi, eng avvalo, muayyan mamlakat milliy valyutasining mavjud bo'lishi hamda barqaror amal qilishini taqozo etadi.Dastlab pul vazifasini qimmatbaho mahsulotlar bajargan: marjonlar, yungli jonivorlar terisi,qimmatbaho chig'anoqlar, qimmatbaho metalldan tayyorlangan buyumlar, qo'y va tuyalar.



Pulning eng birinchi namunalari[51]

Odamlar bir-biri bilan tovar almashishni boshlagan paytdan boshlab, ular olgan narsalari uchun to‘lashni, shuningdek, o‘zlarini boyitishni o‘rgandilar. Pul har doim dunyoning turli burchaklaridagi odamlar hayotida muhum ahamiyatga ega bo‘lgan. Faqat qadimgi davrlarda bu odatiy tangalar emas, balki bu maqsadlar uchun ko‘zlanmagan eng aql bovar qilmaydigan va yaroqsiz ko‘rinadigan narsalar edi.

XX asr boshlarida Afrikaning ba’zi bir xalqlarida chorva tuyog‘idan pul o‘rnida foydalanilgan. Mashhur ingliz sayohatchisi Lingvistoning aytishicha, mahalliy xalq undan Angliya qirolichasining boyligini bilish maqsadida qancha moli bor deb so‘ragan. Tinch Okeani va Afrika qit’asi xalqlarida qimmatli chig‘anoqlar pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - fil suyagi, Kadimgi Misrda - bug‘doy, Xitoyda - tuz, Mug‘ulistonda - choy ayirboshlash jarayoni pul muomalasi o‘rniga o‘tgan. Qadim zamonlardan beri pul vazifasini qimmatbaho metallar ham o‘tab kelgan. Miloddan oldingi 3 minginchi yillarda Shumer davlatida asal va kumush pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi 2 minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

Shunga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng, o’z milliy valyutamizni muomalaga kiritish muhim va murakkab vazifalardan biri sifatida namoyon bo’ldi. Bu borada hukumatimiz tomonidan har tomonlama asoslangan, izchil iqtisodiy siyosat amalga oshirildi. Unga binoan, respublikamiz o’z mustaqilligini e’lon qilgan bo’lsada, dastlabki yillarda sobiq Ittifoq pul birligi – rubl hududida amal qilish ob’ektiv zarurat sifatida tan olindi. Zero, ittifoqdosh respublikalarning siyosiy jihatdan

[51]Eng qadimgi pullarning ko’rinishi.

mustaqillikka erishishlariga qaramay, ular iqtisodiyotining birdaniga, zudlik bilan rubl hududidan ajralib chiqishlariga iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud emas edi. Bunday holat yagona pul makoni doirasida yuqori darajada muvofiqlashtirilgan iqtisodiy, birinchi navbatda, pul-kredit siyosatining amalga oshirilishini taqozo etar edi. Shunga ko'ra, dastlabki pallada Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki pul emissiyasi bo'yicha monopolistik huquqni amalga oshirib, rubl amal qilgan barcha mamlakatlarning hududida pul barqarorligini ushlab turish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish mas'uliyatini zimmasiga oldi.Biroq, bozor munosabatlarining shakllanishi bilan bog'liq holda narxlarni erkinlashtirish jarayonlari respublikalararo savdo jarayonlarida nomutanosibliklarni keltirib chiqara boshladi. Respublikalar savdo balanslari taqchilligini eksport narxlarini o'zgartirish, kredit emissiyasi hisobiga moliyalashtirishga majbur edilar. Bundan tashqari, davlat korxonalarini keng miqyosli subsidiyalash bo'yicha tadbirlar ahamiyatli darajada Rossiya Davlat bankining imtiyozli kreditlari hisobiga moliyalashtirilar edi. Ko'rsatib o'tilgan omillar natijasida rubl hududidagi pul-kredit nazoratining bo'shashib ketishi inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi.O'zbekistonni o'z milliy valyutasining muomalaga kiritish zarurligi 1993 yilda dastlab Rossiyaning, keyinchalik MDH boshqa qator mamlakatlarining o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishi bilan yanada kuchaydi. Chunki, O'zbekistonga boshqa respubliklar hududida amal qilish huquqini yo'qotgan eski rubl pul birliklari oqib kela boshladi. Qolaversa, rubl hududida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqil ravishda mamlakatdagi pul-kredit sohasining rivojlanishini to'liq nazorat qila olmas edi. Pullar qachon paydo bo'lganini aniq aytish qiyin. Axir, hatto pul tushunchasi ham har doim boshqacha edi. Ibtidoiy odamlarning mavjudligi davrida ayirboshlash amalga oshirilgan. Masalan, kulolchilik bilan shug'ullanganlar qozon va ko'zalar, temirchilar – o'q o'qlari, temirchilar va boshqalar bilan savdo qilganlar. Bu juda qulay emasligini tushunib, oziq-ovqat va narsalarning qiymati boshqacha bo'lgan tushuncha paydo bo'ldi.

Ayrim ob'ektlar, tovarlar yoki hayvonlar pulning yangi shakliga aylandi. Misol uchun, Nauru orolida kalamushlar bilan, Efiopiyada tuz barlari bilan, atsteklar kakao loviyalari bilan, amerikalik mustamlakachilar esa tamaki barglari va hayvonlar terisi bilan to'lashdi. Qadimgi davrlarning eng keng tarqalgan pullari kovri qobig'i edi: ular Xitoy, Afrika, Hindiston va Tailandda ishlatilgan.Pulning paydo bo'lishini xronologik jihatdan to'g'ri tavsiflash iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda paydo bo'ladigan sabab omillari zanjiridir. Pulning rivojlanishi va shakllanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, odamlar o'troq turmush tarzini yo'lga qo'yib, o'z yerlariga ega bo'lgach, ba'zi oilalarda ba'zi mahsulotlarning ortiqcha, boshqalarining etishmasligi paydo bo'lgan. Ushbu vaziyatdan chiqish yo'li almashinuv edi.Bu miloddan avvalgi 7-8 ming yilliklarda pulning paydo bo'lishi tarixining boshlanishi edi. Odamlar o'zaro manfaatli tovarlarni almashib, o'z ehtiyojlarini shu tarzda qondirdilar.Ayirboshlash mezonlari "tasodifan",

ya'ni to'g'ridan-to'g'ri savdo joyida o'rnatilgan va hech qanday barqaror xususiyatlarga ega emas edi. Vaqt o'tishi bilan, taklif qilinadigan mahsulotlar assortimenti ko'payganida, tabiiy almashinuv og'ir va noqulay bo'lib qoldi. Ularning “pul”larini tashishning murakkabligi va tez yomonlashishi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini murakkablashtirdi.Garchi barcha xalqlar uchun pulning paydo bo'lish vaqti har xil bo'lsa-da, lekin ularning har biri qiziqarli xususiyatlarga ega edi. Shunday qilib, masalan, Xitoy, Hindiston, Indochina qabilalari orasida qirg'oqlarga yaqin joylashgan, pulning paydo bo'lish jarayoni dengiz chig'anoqlari bilan boshlangan.Ular iplarga o'ralgan va boncuklar kabi kiyingan. To'lov vaqtida "xaridor" sotuvchiga kerakli miqdordagi qobiqlarni berdi. Haqiqiy odamlarning bosh suyagi va suyaklaridan ham hamma joyda foydalanish mumkin edi.Iqtisodiyotda pulning paydo bo'lish tarixi muhim rol o'ynaydi, chunki aslida iqtisodiyotning rivojlanishi va paydo bo'lishi tabiiy pullarning ixtiro qilinishi bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiyotning ibtidoiy shakllari va uning boshlanishi odamlarning o'z xo'jaligiga ega bo'lgan paytda paydo bo'la boshladi, ammo savdoning paydo bo'lishi bilan odamlarning boy va kambag'allarga intensiv tabaqalanishi boshlandi. Muhim bo'ldi va "kapital" ning birinchi shakli - qo'lda chorvachilik. "Boshlar" soni uning egasining holatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.Pul evolyutsiyasining tarixiy jarayoni bu bilan to'xtab qolmadi va pulning paydo bo'lishining keyingi davri miloddan avvalgi 15-10 asrlarga, qimmatbaho metallar paydo bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Dastlab ular umumiy qabul qilingan shaklga ega emas edi. Qimmatbaho metallardan yasalgan har qanday "bo'laklar", marjonlarni, uzuklar va boshqa buyumlar savdo munosabatlarida dolzarb bo'lib qoldi.

Oltin va kumush uzoq vaqtdan beri tovarlarni baholashning asosiy mezoni bo'lib kelgan. Masalan, chet el pullarining tarixi ular bilan faqat yangi davrning boshida, oltin tangalar aylanmasi tugaydi.Bolalar uchun pulning paydo bo'lishi tarixi juda qiziqarli va rivojlanayotgan mavzu bo'lishi mumkin. Pulning rivojlanishining qisqacha tarixi, agar bolalar uchun pulning paydo bo'lishining og'zaki tarixi vizual ob'ektlarning namoyishi bilan birga bo'lsa, bolalar xotirasida juda oson va tez "saqlanadi".Qabul qilingan ma'lumotlarning 60% gacha vizual effekt bilan eslab qolishi isbotlangan, shuning uchun hatto pulning paydo bo'lish tarixi rasmlarda yoki taqdimot shaklida ushbu mavzuning asosiy fikrlarini o'rganishga yordam beradi.Shunga qaramay, birinchi pullarning paydo bo'lish tarixi ko'pincha bugungi kunda, yuqori texnologiyalar asrida o'zini namoyon qiladi. Bolaligingizda turli o'yinchoqlar yoki boshqa narsalarni qanchalik tez-tez almashtirganingizni eslang, bu tabiiy almashinuvning namoyonidir!

Birinchi pullarning tarixi "qog'oz va temir" bilan tugamaydi, kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan ko'plab iqtisodiy operatsiyalarda keng qo'llaniladigan "elektron pullar" paydo bo'ldi.Pulning paydo bo'lishining tarixiy jarayoni o'z boshlanishiga ega, ammo hozirgacha oxiri yo'q, chunki pulning paydo bo'lishi va uning rivojlanish tarixi nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy tadqiqotlarning ham mavzusiga

aylandi (K. Marks va D. Xum, A. Smit va boshqalar), hatto oxir-oqibat insoniyat pul mavjud bo'lishni va o'z vazifalarini bajarishni to'xtatadigan bosqichga kelishi haqida nazariyalar mavjud edi.Ayni paytda, muzeylar va boshqa tarixiy tashkilotlarda pul "yodgorliklari" bilan bir qatorda turli xalqlarning pullari paydo bo'lishining ishonchli tarixi ehtiyotkorlik bilan saqlanadi.Pul kelib chiqishining evolutsion konsepsiyasiga ko‘ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanislii natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olarni ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pulning paydo bo‘lishi turli xil bosqichlarni bosib o‘tgan ekan.Bu bosqichlarda pulning roli asta sekinlik bilan orta boshlagan va u mamlakat iqtisodiyoti asosini tashkil qilgan.

Dastlab o‘tgan zamonlarda aholi tomonidan pul va uning ekvivalentlari paydo bo‘lmasdan avval, ular o‘zlarida mavjud buyumlar ya’ni ish qurollari,o‘zlarining iste’molidan ortib qolgan mahsulotlarni qolganlar bilan o‘zlariga kerak bo‘lgan narsalarga almashishgan. Lekin vaqt o‘tgan sayin bu jarayonlar bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqargan va natijada aholi boshqa yo‘llarni izlay boshlashgan.Va shundan keyin dastlab oltin tangalar, keyinchalik qog‘oz pullar paydo boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodmonov Sh.Sh., Yaxshieva M.T., Yusupov R.A. Pul nazariyasi: O’quv qo’llanma. –T.: TDIU.
2. Abdulloev A.J, Kaimova Z.A, Boltayev Sh.Sh., Narzieva D.M. "Pul vaBanklar" O'quv qo'llanma - B .: "", 2021.
3. Finlit.uz

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	“BEOWULF” SHE’RINING ADABIY XUSUSIYATLARI Arazdurdiyeva Annasoltan Narbayevna	4
2.	O’QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA O’QITUVCHILARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI Usmonova Dilobar	10
3.	MILLIY MA’RIFAT HAMDA DINIY TARBIYANING ADABIYOT DARSLARIDA NAMOYON BO’LISHI Mo‘minova Cho‘lponoy Abdulvohidovna	14
4.	USE OF INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING THE SUBJECT OF SATURATED CARBOHYDRATES Khojaeva Nafisakhon Toshtemirovna Isomiddinova Saidaxon Rahimjon kizi	19
5.	МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ ХОДИМЛАРИДА СТРЕССГА БАРҚАРОРЛИКНИ ДИАГНОСТИКА ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ Нуржахон Исмоилова Шахло Тўйчиева	25
6.	ATOULLA XO’JAYEV – BXSRDAN XORIJGA O'QUVCHI VA TALABALAR YUBORISHNING TASHKILOTCHISI VA TASHABBUSKORI Artikov Zafar Zaripovich	30
7.	VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILISHIDA OILAVIY OMILLAR VA OILA TUZILMASINING TA’SIRI Nazarova Ra’no Sidiq qizi	36
8.	KAFEDRA O‘QUV YUKLAMASINI SHAKLLANTIRISH VA PROFESSOR-O‘QITUVCHILARGA TAQSIMLASH TIZIMI Eshpo‘latov Kamol Ikrom o‘g‘li	43
9.	MOSH SELEKSIYASI BO‘YICHA O‘TKAZILGAN TADQIQOT NATIJALARI Idrisov Xusanjon Abdujabborovich Ibragimov O‘tkir Murodovich Mirboboyev Mirvaqqos O‘tkirovich Xo‘jaqulov Sherzod Baxtiyorovich Musirmonqulov O‘tkir Umirqulovich	45
10.	ЭНЕРГИЯТЕЖАМКОР ВА ПАСТ ЭНЕРГИЯ ЭҲТИЁЖЛИ ЗАМОНАВИЙ БИНОЛАР ҚУРИЛИШИНИНГ ЖАҲОН АМАЛИЁТИ ВА УНДАН ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ Хакимов Ғайрат Акрамович Мўминов Абдижамил Абдихалилович Бердимуродов Абдиқаюм Эшназарович Туляганов Зафар Суннатович	52
11.	KARBONAT ANGIDRID.SUYUQ VA QATTIQ KARBONAT ANGIDRIDDAN FOYDALANISH USULLARI Shomurodova Marjona Zarif qizi Ro‘ziyeva Zarnigor Qaxramonovna	68
12.	ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОТИДА ЁШЛАР ТИНЧЛИК МАДАНИЯТИ ЮКСАЛТИРИШНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Абдумаликов Илимжон Абдухамжонович	75
13.	ХАЛҚАРО ҲИСОБ АНДОЗАЛАРИДА УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАРНИ ТАН ОЛИШ, БАҲОЛАШ ВА ҲИСОБГА ОЛИШ ТАМОЙИЛЛАРИ Шерзод Набиев Абдурашид ўғли	83

14.	O’ZBEK SHE’RIYATIDA DINIY-MA’RIFIY SHE’RLARDA ILM-MA’RIFAT-G‘OYALARINING YORITILISHI Mardanova Gulshan	95
15.	VIII – X ASR OXIRLARI XORAZM TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI Ro’zimov Asror Shuxrat o’g’li	100
16.	ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNI VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSISYATLARI Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	103
17.	FITRAT LIRIKASIDA ISTIQLOL G’OYALARI TALQINI Eshmurodova Gulhayo Orifjon qizi	107
18.	AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR Rasulova Gulbakhor	112
19.	INGLIZ, O`ZBEK VA RUS TILLARIDA RAVISHDOSH VA UNING SINKRETLASHUVI Zarnigor Sirojova Nasriddinovna	119
20.	TRAINING FOR THE DEVELOPMENT OF BALANCE IN LEARNING TO MOVE Mirzaboev Khurshedjon Rustamovich:	124
21.	THE INTERCULTUAL APPROACHES TO EFL TEACHING AND LEARNING Nozimaxon G’ofurova Gulhayoxon Yigitaliyeva Maftuna Turg'unova	128
22.	TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR Adambayeva Sevara Sa’dulla qizi Sotvoldiyeva Durdonabonu Shavkatjon qizi	133
23.	THE IMPORTANCE OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS Mamadjanova Nozima Adkhamovna	136
24.	HARBIY XIZMATCHILARNI KOMANDIRLIK SIFATLARINI OSHIRISHDA HARBIY PEDAGOGIKANING O’RNI Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich	144
25.	ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕВРОТИЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ ПРИ СИНДРОМЕ РАЗДРАЖЕННОГО КИШЕЧНИКА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРИ НИХ Гафурова Сабохат Шоюнусовна Юсупхаджаева Сурайё Толкин қизи	153
26.	ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI – BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI MUHIM MANBA SIFATIDA Sattarova Nodira O‘tkir qizi,	160
27.	UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARI RAHBARINING BOSHQARUV USLUBINING NAZARIY ASOSLARI Kazimov Jamshid Roziqova Muyassarxon	166
28.	FAYNBERG GULBOG’I Odinayev Abbosbek Zafar Abdusamadov	170
29.	ЎЛЧАШ ТИЗИМЛАРИДА КЎПРИК СХЕМАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ Ходжаев Ойбек Шавкатович Абдураззоқов Жамшид Тургунбой ўғли	173

	Махсудов Валижон Гафуржонович Эрметов Эркинбай Яхшибаевич	
30.	К ТЕОРИИ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО УСИЛЕНИЯ КОРОТКИХ ЛАЗЕРНЫХ ИМПУЛЬСОВ В НЕЛИНЕЙНЫХ ФОТОННЫХ КРИСТАЛЛАХ Hojiyev Farrux Anvarovich Zakirjanova Gulchehra Abdulvahitovna	180
31.	CONTROL OF THE FACIAL DESIGN PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENTS Hojiyev Farrux Anvarovich Ubaydullayeva Muazzamxon Hamidovna	186
32.	АРХИЁН ЖАНГИНИНГ БОБУР ТАҚДИРИДАГИ ЎРНИ Тоҳиржон Қозоқов	192
33.	POLIAKRILONITRIL ASOSIDA IONALMASHINUVCHI MATERIALLARNING OLINISHI VA FIZIK KIMYOVIY XOSSALARI Babayeva Gulnoza Oybek Qizi Tojiboyeva Iroda Muxammadyunusovna Xidirova Mavluda Narzullayevna	209
34.	JAHON TOVAR BOZORLARIDA ENERGIYA RESURSLARIGA BO'LGAN TALABNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI Axmedov Sardorbek Rasuljon o'g'li Xudoyorov Anvar Aidjonovich	213
35.	FASHION AS AN OBJECT OF STUDY OF HUMANITIES Sultanova Durdona Abulxayr qizi	219
36.	МАКОН ТУШУНЧАСИ ВА УНИ ЛИНГВИСТИК КАТЕГОРИЗАЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ Uzoqova Shaxnoza Soibnazarovna	226
37.	THE ROLE OF COMMUNICATIVE AND COGNITIVE PROPERTIES OF ARTISTIC DISCOURSE IN LINGUISTICS Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna	232
38.	ADVERBIAL MODIFIER IN ENGLISH Mallayeva Zeboxon Soibnazarovna	239
39.	DINIY DISKURSDA METAFORIK BIRLIKLAR TALQINI VA FUNKSIONALLIGI Subxonova Madina Otabek qizi	243
40.	MILLIY OT SPORTI O'YINLARINING BUGUNGI KUNDA JAMIYATDAGI O'RNI Musayeva Lobar Sayfullayevna Pulatova Saboxat Usmonovna	250
41.	ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ ПЕДАГОГИК АМАЛИЁТДАГИ ҲОЛАТИ ВА ҲУҚУҚИЙ ОНГ Исмаилов Сарварбек Анварбекович	255
42.	MIKROBIOLOGIK INFEKTSIYALAR: BAKTERIYALAR, VIRUSLAR, ZAMBURUG'LAR VA BOSHQA MIKROORGANIZMLAR KELTIRIB CHIQARADIGAN INFEKTSIYALARNI O'RGANISH Azzamov Ulug`bek Ochilov Oybek Zayniddin o'g'li	259
43.	YOSH DZYUDOCHILARNI KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITA VA USULLARI A.T.Saydullayev	264
44.	ФУҚАРОЛИК ҚОНУНЧИЛИГИДА ФАКТИК ЭГАЛИКНИ ЎЗИНИ ЎЗИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ	269

	Сармонов Алимардон Обиджонович	
45.	НАРОДНОЕ УСТНОЕ ТВОРЧЕСТВО И ТРУДОВОЕ ВОСПИТАНИЕ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ Турсоатов Адхам Асадович Авазов Фузайл Ахмедович	275
46.	ТУРКИСТОНДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИДА Валиева Нафиса Абдумажитовна	281
47.	INTEGRATSION DARSLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI G‘oyibnazarova Nargiza Raximjonovna	286
48.	DARSLARDA “YUKLASH” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY TAHLILI Dawletmuratova Bayramgu‘l Maxsetbay qizi	290
49.	PULNING MOHIYATI, PAYDO BO’LISHI VA XUSUSIYATLARI Qosimov Faxriddin Shamsiddinovich Mingboyev Ibrohim Alisher o’g‘li	295

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil. 304 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati.